

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI



**«Dehqonchilik va melioratsiya asoslari»
kafedrasi 5620800-O'rmonchilik ta'lim
yo'nalishi bakalavriat bitiruvchisi**

ISMAILOV JASUR USMANOVICH NING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Aholi turar joylarini ko'kalamzorlashtirish agrotexnikasi



Ilmiy rahbar, katta o'qituvchi _____Jumayev Sh.M.

**Ishko'rib chiqildi va himoyaga qo'yildi.
«Dehqonchilik va melioratsiya asoslari»
kafedrasi mudiri,
professor _____K.M.Mo'minov
«__» _____2014 yil**

**Agronomiya fakulteti dekani
dotsent _____D.S.Normurodov
«__» _____2014 yil**

SAMARQAND-2014

Mundarija

№		Bet
	Kirish	
1.	Adabiyotlar sharxi.	
2.	Ko'kalamzor maydonlarining o'rni va ahamiyati	
3.	Ko'kalamzorlashtirish kompozisiya va shakllantirishning kompozision turlari	
4.	Daraxt o'simliklarining biologik va manzarali xususiyatlari	
5.	Yashil daraxtzorlarning klassifikatsiyasi va normalashtirish	
6.	Ko'kalamzorlashtirish uslublari	
6.1.	Shaxarda daraxtlarni joylashtirish	
6.2.	Park (bog') va park o'rmonlarini joylashtirish	
7	Ko'chalar, bulvarlar va kvartallarni ko'kalamzorlashtirish	
7.1.	Bolalar bog'chasi va maktablarni ko'kalamzorlashtirish	
7.2.	Shifoxonalar va sanoat korxonalarini ko'kalamzorlashtirish	
7.3.	Qishloqdagi axoli yashaydigan joylarni ko'kalamzorlashtirish	
8.	Yashil daraxtzorlarni barpo etishning agrotexnikasi	
9.	Gulzor va maysazorlarni barpo etishning agrotexnikasi	
10.	Ko'kalamzorlashtirishning iqtisodi va tashkil qilish	
11.	O'zbekiston respublikasi prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar	
12.	Hayot faoliyati xavfsizligi	
	Xulosa	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	
	Ilovalar	
	Internet ma'lumotlari	

KIRISH

Aholi yashaydigan hududlar, shahar va qishloqlarning ko'rkam bo'lishida manzarali daraxtlarning o'rni beqiyosdir. Ushbu xududlarni ko'kalamzorlashtirishda joyning tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda mos keladigan daraxt va butalarni tanlash va ekish texnologiyalarini amaliy bilish zarur. Respublikamizda aholi turar joylarini, sanoat korxonalarini, sport inshootlari va o'quv maskanlari atrofini ko'kalamzorlashtirishda, ajoyib kompozitsiyaga ega bo'lgan, ko'rkam bog'-parklar va sayilgohlar barpo etishda manzarali daraxt va buta turlarini to'g'ri tanlash, ularni biologiyasini o'rganish, manzarali daraxtlarni xududlar bo'yicha tarqalishida va ularni ekish sxemalarini o'rganishda ushbu fanning ahamiyati kattadir.

Sanoatining rivojlanishi atrof - muhitni ifloslantirishiga, havo va suv xavzalarini aerazol va gaz shaklidagi chiqindilarni zavod, fabrika issiqliqelektr stansiyalari, isitish tarmoqlari, avtomobillar ko'proq chiqaradilar, bu esa odamlarning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa O'zbekistonning keskin kontinental iqlimida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu muammo xalqaro ahamiyatga egadir. Yuneskonning bosh sessiyasida keng tadqiqotlar programmasi qabul qilingan: «Odam va biosfera» mavzusida. Bu tadqiqot ishlarida O'zbekiston xam faol qatnashayabdi.

Hozirgi zamon shahri yoki aholi punkti - bu murakkab imoratlar bo'lib, ular xar hil vazifani bajaradilar, yo'llar, maydonlar ochiq joylar, suv havzalari va yashil daraxtzorlar. Hozirgi zamon shahar qurilish normalari bo'yicha aholi punktlarning 50% maydonida yashil daraxtzor, butalar bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Yashil qurilish amaliyoti o'ziga shularni kamrab oladi: bog'lar, barpo etish, xar hil obyektlarni ko'kalamzorlashtirish sharoitiga o'simlik turlarini tanlash, xar hil obyektlarda o'simliklarni joylashtirish va guruhlash va ularga parvarish berish.

Aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish tarixiga nazar tashlasak, u quldorlik davrida paydo bo'lishga ishonch hosil qilamiz, u davrda bog'lar, diniy inshootlar,

saroylar, xukmdorlar boglariga asosiy e'tibor berilar edi. qadimgi misrda bog'larni joylashtirish yuqori sifat bilan bajarilar edi. qadimgi Mesopotamiyada katta maydonli ov ko'riqxonlari bo'lgan. Zinapoyalarda joylashgan bog'lar narvonlar bilan bog'langan. qadimgi Gresiyada daraxtlar simmetrik usulda joylashgan ibodatxonalarni o'rab turar edi, ayrim paytlarda esa shaxarning markazini xam. Bizning asrimizdan ilgarigi V asrda bog'lar - geronlar kollonnalar va xaykallar bilan bezatilgan va sport bilan shugullanadigan maydonlar ko'kalamzorlashtirilgan.

Markaziy Osiyoda bog' - saroy (park) san'ati ko'p asrlik tarixga ega. Bizning eramizdan ilgarigi VI - VII asrda Murgob, Zarafshon va Amudaryoning vodiylarida fors (Eron) imperiyasining boy viloyatlar - Margiyona, Sugdiyona, Baqtriya, Xorazmda umumiy yo'llar, Shimoliy- ~arb, Xindiston, va Eron. Qashgar va Janubiy Xitoy bilan aloqa bo'lgan.

Samarqandning qadimgi ajoyib bog'lari, saroylari va dala xovlilari to'g'risida kadimgi arab geografi (XII asr) Ibn-Xaukama (L.S.Zalesskaya, 1949) «Samarqand - buyuk va ajoyib shahar, u So'gd daryoning janubida joylashgan, Shaharda ko'p uylar, saroylar, daraxtlar bilan uralmagan uylar oz. Shaharning tashqarisidagi saroylar, bog'lar, bizning davrimizgacha yetib kelmagan, ular xashamatligi bilan ajralib turgan va yirik machitlar, madrasalar Samarqandning diqqatga sazovor bo'lgan joylari ko'p bo'lgan. Yirik va chiroyli bog'lardan biri Ispaniya elchisi Klavika da Gonzales yozganidek Davlatobod deb nomlangan. Bu bog' katta ochiq joydan iborat bo'lib u tuproqdan qurilgan tepalik bilan chegaralangan, ko'p sonli mevali daraxtlardan iborat bo'lgan. Bog'da bug'u, qirg'ovul (tustovuq) o'stirilgan (boqilgan). Bog'dan uzumzorli yo'l bo'lgan. Devorlar yoniga bir necha qator baland bo'yli daraxtlar ekilgan. Mevali bog'da oltita xovuz va ariqlar tarmog'i bo'lgan. Yo'llar bog'lardan yuqoriroq joylarda joylashgan bo'lib, ularning atrofida sersoya bo'lgan daraxtlar ekilgan.

Daraxtoboddagi bog' chet eldan kelganlarni o'zining chiroyi bilan xayratda qoldirar edi. Arxeologlarning aniqlashicha bu bog' shahardan uzoq bo'lmagan. Misr-Shaar xarobalari oldida joylashgan.

Qadimgi Samarqandda yuqorida yozilganidan tashqari boshqa bog'lar xam bo'lgan Shaxannumo (Samarqanddan janubiy-sharqda 27 km narida), Dilkusho, Shamollar bog'i, Ko'ngilni xursand qiluvchi, Chinorli bog'.

XV asrning oxiri, XVI asrning boshida Samarqandda va Xirotda bog'larni barpo etishning bosh qacha usuli qo'llanilgan. Ekilgan o'simliklarning turi bayroq bo'lgan. Samarqanddagi Darvish - Muhammad Taraxonda ajoyib qayragochlar, biota, kumushsimon teraklar ekilgan edi. Bog' -Jaxon-Arada Xirotda Sara (kiparis), chinor, uzum va mevali daraxtlar o'sgan.

1.Adabiyotlar sharxi.

Hozirgi zamon shahri yoki aholi yashash xududlari – bu murakkab obyektlar bo'lib, ular har-xil vazifani bajaradilar. Hozirgi zamon shahar qurilish normalari bo'yicha punktlarning 50% maydonida yashil daraxtzorlar, butalar bilan qoplangan bo'lishi kerak.

Yashil qurilish amaliyotida o'ziga bog'lar barpo etish, xar hil obyektlarni ko'kalamzorlashtirishda sharoitga qarab o'simlik turlarini tanlash va joylashtirish va ularni parvarishlash kabilarni qamrab oladi:

Aholi hududlarini ko'kalamzorlashtirish tarixiga bir nazar tashlasak u quldorlik davrida paydo bo'lishiga ishonch xosil qilamiz. U davrda bog'lar, diniy inshootlar, saroylar, xukmdorlar bog'lariga asosiy e'tibor berilar edi.

Qadimgi Misrda bog'larni joylashtirish yuqori sifat bilan bajarilar edi. Qadimgi Misopotamiyada katta maydonli ov qo'riqxonolari bo'lgan. Qadimgi Gresiyada daraxtlar simmetrik usulda joylashtirilib, ibodatxonalarni o'rab turar edi. Eramizning avvalgi V-asrda shaharning markazidagi bog'lar kolonnalar va xaykallar bilan bezatilgan. Aksariyat ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar sport bilan shug'ullanishga mo'ljallangan.

Arab geografi Ibn Xaukama Samarqandning qadimgi ajoyib bog'lari, saroylari, va dala xovlilari to'g'risida “ Qadimgi Samarqand buyuk va ajoyib shahar, u So'g'd daryosining janubida joylashgan, shaharda ko'p uylar, saroylar, xonaqolar mavjud bo'lib, ularning atrofi rang-barang gullovchi daraxtlar va butasimonlar bilan o'ralgandir” deb fikr bildirgan. Xuddi shunday azaldan ko'rkam bog'lar bo'lgan yurtida bugun ham mamlakatimiz Prezidenti say xarakatlari tufayli o'ta go'zal kompozisiyaga ega bo'lgan bog'lar mamlakatimizning barcha shaharlarida barpo etilmoqda. Ayniqsa yurtboshimizning Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlab yozgan “Tarixi boy, buguni go'zal, kelajagi buyuk shahar” asarlarida shaharni yanada ko'rkam bo'lishida qurilayotgan inshootlar va binolar fasadiga mos keladigan yashil xududlar yaratish to'g'risida fikr muloxazalar beriladi.

Aholi yashash xududlari, bog'-xiyobonlar, sayilgohlar, odamlar tashrif buyuradigan barcha xududlarda manzarali yashil daraxtzorlar barpo etishda o'simlik

turlari o'z ko'rki bo'yicha inson ko'z qarashlarida jilolanib borishi bo'yicha joylashtirib borish zarur bo'ladi. Bunda yaproq bargli va nina bargli butasimonlarga ajratilib, ularga o'sib rivojlanishi talab darajasida bo'lishi uchun parvarishlash uslublari bo'yicha agrotexnik tadbirlar olib boriladi. Chunki shox-shabballari bemalol o'sgan, o'sib rivojlanish ko'rsatkichlari talab darajasida bo'lgan butasimonlar yanada ko'rkam kompozitsiyalar namoyon qiladi (Abduraxmonov L.A., Slavkina T.I. 1980, Ablayev S.M., Yuldashev Ya.X. 2008)].

O'zbekiston xududini ko'kalamzorlashtirishda manzarali butasimonlarga dendrologik tavsif berilib, ularni estetik xususiyatlar namoyon etishi bunda yaproq va nina bargli butasimonlarni navbatma-navbat kurtak ochishi, barg yoyishi, gullash davrining ketma-ketligi manbalarda beriladi. Chunki bog'da tashrif buyuruvchilarning ko'z nigohida faqat bir hillik emas balki rang-baranglik jilosi bo'lishi zarur. Shuning uchun bog'-sayilgohlarda manzarali o'simliklarni joylashtirishda ularning tashqi tomondan ko'zga tashlanishiga katta e'tibor qaratiladi (Arifxanov K.T. 1970, Viliseva V.V., Zapryagova V.I. va boshqalar 1986).

Manzarali o'simliklarning o'sib rivojlanishida maxalliy tuproq, iqlim va ob-havo sharoitiga e'tibor berib boriladi. Ba'zi o'simliklarning mamlakatimizning og'ir iqlim sharoitida, sho'rxok tuproqlardan iborat yer maydonlarida o'sib rivojlanishida bajariladigan agrotexnik tadbirlarning qo'l kelishi ularning manzarali xususiyati yaxshilaydi (Abduraxmonov L.A., Slavkina T.I. 1980, Arifxanov K.T. 1970). Ko'kalamzor xududlar barpo etish maqsadida ekiladigan manzarali butasimonlar o'zlarining estetik xususiyatini yo'qotmasligi uchun turli omillarning ta'siri xaqida bar qancha izlanishlar olib borilgan. Mavjud butasimon o'simliklarning organizmlarida rivojlanish bemalol bo'lishi uchun tashqi muhit sharoitlari katta ta'sir ko'rsatadi. Butasimonlarni tashqi ko'rinishi, ya'ni shakli bo'yicha taksasiyaga oid ko'rsatkichlarining o'zgarib borishi, yashash davrining uzoq va kam umr ko'rishi tashqi muhit sharoitlariga bog'liq xolda o'zgarib boradi (Burigin V.A., Jongurazov F.X. va boshqalar 1972, Viliseva V.V., Zapryagova V.I. va boshqalar 1986).

Har hil turdagi uzoq davom etadigan tashqi ta'sirlarga qarshi mos shakllar va biologik xususiyatlar ishlab chiqildiki, ular o'simliklarni o'sib rivojlanishida ma'lum

bir sharoitlar yaratadi. Bu jarayon og'ir iqlimli, garmisli xududlarda ayniqsa uzoq yurtlardan keltirilgan turlarga juda ma'qul bo'ladi. Bular bu xolatlarda mahalliy iqlim va tuproq sharoiti o'rganib chiqilib tumanlashtiriladi (Yoziyev L.X. 2002).

Manzarali o'simliklarning yashash muhiti bizga ma'lumki o'rab turgan barcha landshaft elementlaridan iboratdir. Yashash sharoitlari unumdor yoki unumsiz maydonlar, sho'rxok g'o'shakli yerlar, toshloq maydonlar, havo namligi yuqori darajadagi yoki qurg'oqchil yerlar, sug'oriladigan yoki lalmikor maydonlar, sovuq, issiq, jazirama yoki mo'tadil havo haroratidan iboratdir (Yaskina L.V. 1980, Burigin V.A., Jongurazov F.X. va boshqalar 1972, Yoziyev L.X. 2002).

Yuqoridagi ta'sirlarni o'z vaqtida o'rganib borib uni ilmiy va amaliy sohalarda qo'llash, o'simlik olamini bir me'yorda rivojlantirishda yaxshi natijalar bera oladi.

O'simliklar o'zining o'sib rivojlanishining xayotiy jarayonida qandaydir ma'lum haroratga muxtojligi seziladi. Harorat o'simlik dunyosining turiga qarab optimal ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Agar harorat me'yoridan keskin o'zgarsa o'simlikning me'yoridagi o'sishi o'zgaradi. Uning insonlarga ko'z qarashlaridagi shakli yaxshi tomonga o'zgarmay qoladi va bu uning manzarali estetik xususiyatini salbiy tomonga olib boradi (Abduraxmonov L.A., Slavkina T.I. 1980, Mulkidjanyan Ya.I., Teodoronskiy V.S. 1984).

T.I. Slavkina, O.I. Podolskayalar o'z ma'lumotlarida (Abduraxmonov L.A., Slavkina T.I. 1980, Slavkina T.I., Podolskaya O.I. 1987) manzarali o'simliklarni sovuq haroratga bo'lgan munosabati bo'yicha bir nechta qismga ya'ni, sovuqqa o'ta chidamlilar, sovuqqa chidamlilar, sovuqqa chidamsiz va sovuqqa umuman chidamsiz turlarga bo'lgan.

Manzarali butasimonlarni yuqoridagi sovuq haroratga bo'lgan munosabatlarini e'tiborga olgan holda mamlakatimiz xududlarida joylashtiriladi (Ozolin G.P., Karpov V.A. va boshqalar 1974)

Manzarali butasimonlarni joylashtirishda ularni balandlikka qarab o'sishiga e'tibor beriladi. Chunki ular bog'-park xududlari sayilgoh va hiyobonlarda manzara berish jarayonida bir-birini yopib ketmasdan balki ko'rsata olishi zarur. Balandligi

bo'yicha butasimonlar 2,0 m dan ortiq, 2,0 m gacha va 1,0 m, 0,8m, va 0,5m o'lchamlarda o'sib rivojlanadi.

Manzarali o'simliklarning yana bir estetik ko'rinishi bu ularni o'sib rivojlanish jarayonida uzoq yashab ketishidir. Ma'lumki yaproq bargli butalar ham nina bargli butasimonlar ham uzoq yashashi uchun yaxshi iqlim sharoiti va tuproq tarkibi talab darajasida bo'lishi zarur bo'ladi. Ular juda uzoq yashovchi (100 yildan ortiq) turlar: doim yashil sarv, samshit, qoraqat; uzoq yashovchi (50-100 yil) turlar: yapon behisi, beresklet, kazas archasi, nastarin, tog' qarag'ayi; o'rtacha umr ko'radigan (25-50 yil) turlar: yapon bereskleti, bobovnik, marjon daraxt va kam umr ko'radigan (25 yilgacha) turlar: deysiya, forzisiya, spireya, amorfa, bodom, qorsimon mevali butalarga bo'linadi. Kam yashaydigan o'simliklar biroz o'sib rivojlangandan so'ng o'zining tashqi ko'rinishi va shaklini yo'qotadi. Yaxshi estetik manzara bera olmaydi (Nexujenko N.A. 2004, Slavkina T.I., Podolskaya O.I. 1987, Teodoronskiy V.S., Belyy A.I. 1989).

Asrlar davomida davom etgan tabiiy tanlanish jarayonida daraxtsimon o'simliklarning turli shakllari paydo bo'lgan. Ushbu belgilariga ko'ra ular bir necha tiplarga ajratiladi. Asosiy tipga daraxtlar, ya'ni yakka, yaxshi rivojlangan tanaga ega bo'lgan daraxtlar bo'lib, tana balandligi 40-50 m, diametri 0,5-1,5 m gacha yetadi. Daraxt o'simliklarni quyidagi kategoriyalarga ajratish qabul qilingan

- o birinchi kattalikdagi daraxtlar – 25 metrdan baland daraxtlar (qarag'ay, tilog'och, qora qarag'ay);
- o ikkinchi kattalikdagi daraxtlar – balandligi 15-25 metr bo'lgan daraxtlar (oq qarag'ay, terak, chinor, qayrag'och);
- o uchinchi kattalikdagi daraxtlar – balandligi 7-15 metr bo'lgan daraxtlar (zarang, eman, qayin, oq akasiya);
- o past daraxtlar – balandligi 5-7 metr bo'lgan daraxtlar (pista, tol, shumtol, jiyda);
- o baland bo'yli butalar – 2,5-5,0 metr balandlikda (chakanda, marjondaraxt);
- o o'rta bo'yli butalar – 2,5 metr balandlikda (na'matak, zirk, irg'ay, shilvi);
- o past bo'yli butalar 0,5-1 metr

o butachalar 0,5 metr balandlikkacha o'sib rivojlanadi [55].

Manzarali o'simliklarni muvofaqiyatli o'sib rivojlanishi eng avvalo ularni parvarishlash ishlarini tashkil etib sharoit yaratishga va bu sharoit o'simliklarni talabiga qanday javob berish va ularning me'yorida o'sib rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

Manzarali o'simliklar aksincha turli hil sharoitga juda moslashuvchan bo'ladi va shunga ko'ra ular tashqi sharoit o'zgarishlariga bemalol bardosh bera oladi. Shunday xususiyatlari tufayli yangi sharoitga tez moslashadilar. Iqlimlashtirish maydonini ancha kengaytirish imkoniyati tug'iladi, ularni tabiiy o'sish muhitidan tashqari parvarish qilish osonlashadi [www.altai.fio.ru].

O'zbekistonning sun'iy sug'oriladigan tabiiy iqlim sharoitidagi yerlarda janubiy kenglikdagi ayniqsa subtropik, hatto tropik mamlakatlarga mansub o'simliklarni muvofaqiyatli o'stirish imkonini beradi. Bu o'simliklarning ba'zi bir turdagilari usti ochiq yerlarda qishni yaxshi o'tkazsalar boshqalari esa isitilgan binolarda saqlanib erta bahorda ochiq maydonga o'tkaziladi. Bularning barchasi O'zbekistonning tabiiy iqlim va tuproq sharoitida bog'dorchilik uchun manzarali o'simliklarni sharoitga qarab tanlashni taqozo etadi.

Shimolning mo'tadil nam va salqin iqlim sharoitida ajoyib manzara berib, o'sib rivojlangan butasimon o'simliklar serquyosh O'zbekistonning quruq va uzoq davom etadigan jazirama issig'ida yaxshi samara bermaydi. Ular erta bahorda o'zining shakli bo'yicha bir oz ochilib turadi. So'ng o'z ziynatini yo'qotadi. Bu esa manzarali bog'lar barpo etishda ancha qiyinchiliklarga olib keladi.

Manzarali bog'dorchilikda vertikal xolatdagi ko'kalamzorlashtirish ishlari faqat oddiy binolarga qo'llangandagina samara berib qolmay, balkim fasad arxitekturasi jihatidan o'ta yuksak bo'lgan inshootlarda ham to'g'ri keladi. Shaharlarda va aholi yashash xududlarida ko'kalamzorlashtirish ishlarida ushbu vertikal xolatdagi ko'kalamzorlashtirish ishlari alohida o'rinni egallaydi. Natijada ekilgan butasimonlar o'zining manzarali xususiyatini bera oladi (Nexujenko N.A. 2004, Polonskaya L.S., 1990, www.uniquegarden.ru).

Atrof muhitni o'simliklarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ular atrof muhitning sanitar-gigiyenik xolatini yaxshilashdagi ahamiyati hilma-hil va juda kattadir. O'simliklar shamolning tezligini, shovqin suronini kamaytiradi, issiqlik rejimini boshqarib turadi, havo tarkibini xarhil chiqindilar va changdan tozalaydi. Bularning barchasi sog'lom muhit barpo qilishga xizmat qiladi. Manzarali butasimonlarni barpo qilinayotgan inshoot va binolar fasadiga to'g'ri joylashtirib borish o'z ko'rkini namoyon etadi.

Muhandislik qurilish ishlari amalga oshirilayotgan vaqtda loyixa-smeta xujjatlarida bunyod etiladigan binoning chor atrofi bilan birgalikda ko'kalamzorlashtirish ham ko'zda tutiladi. Yangi korxonalar, turar joylar barpo etish yoki ta'mirlash vaqtida bu inshootlar mavjud daraxtzorlarga qay darajada uyg'unlashuvini to'liq baholash, imkoni boricha o'ta manzarali yashil o'sib rivojlangan, kasallanmagan yaproq va nina bargli daraxtlar va butalar turini saqlab qolish kerak bo'ladi.

Manzarali yaproq va nina bargli butasimonlarni atrof muhit ekologiyasi uchun go'zal ko'rinishi bu ularni boshqa o'simlik turlari yoki ko'p yillik gul o'simliklari bilan uyg'unlashgan holda ekib borib ajoyib manzara namoyon bo'ladigan yashil xududlar barpo qilishdan iboratdir. Bu esa ko'rkam fasad va kompozisiyaning yana bir turi hisoblanadi (Xessayon D.G. 2003 , Xessayon D.G. 2002)

T.G. Guzenko, M.G. Ganja, I.Yu. Kotova va E.P. Sharapovalarning (1985) "Dekorativnoye sadovodstvo i sadovo parkovoye stroitelstvo" nomli o'quv qo'llanmasida hiyobonlarni, bog'larni turli hil gulli o'simliklar turlaridan foydalanib ekilgan klumbali va rabatkali maydonlarning ko'plab suratlari aks ettirilgan

V.I. Yeroxina, G.P. Jerebsova, T.I. Volfrublarning (1987) "Ozeleneniye naselyonnykh mest" asarida aholi yashaydigan joylarida va uning atrofida ekilgan yashil o'simliklarning ahamiyati xaqidagi tushunchaga, bundan tashqari xar bir xududni ko'kalamzor landshaftga aylantirishda daraxt va butalarning shakli va ularni ekishda, estetik ko'rinishga ega bo'lgan turlaridan tanlab olishga e'tibor qaratiladi. Bu barpo etilgan landshaft va uning manzarasi inson salomatligiga psixologik jihatdan ijobiy ta'sir qilishiga katta ahamiyat beriladi. Skverlarni, parklarni,

bulvarlarni turli hil yo'laklarni ko'kalamzorlashtirishda maydonlarni katta va kichikligiga qarab parter, alleyalar, soliter, massivlar, guruxlar va bosketlarni qo'llash tavsiya etiladi (Yoziyev L.X.2002).

Shahar sharoitida barpo etilgan istiroat bog'larida kompozision ko'rinishdagi yashil xudud barpo etish bo'yicha V. Pechenisin, I. Kuzmichyov (1979) o'zlarining "Ozeleneniye gorodov i syol Uzbekistana" qo'llanmasida keng yoritilgan. Shuningdek istirohat bog'lari, hiyobonlar atrofida yashil daraxtzorlar barpo etish, gulzorlar va maysazorlar qurish va ularga o'z vaqtida agrotexnik tadbirlar qo'llash va parvarishlash ishlari bo'yicha A.B. Lunsning "Gorodskoye zelyonoye stroitelstvo" o'quv qo'llanmasida keng berilgan

A.U. Usmonov, G.S. Kostekovalarning (1973) "Derevyia i kustarniki Sredney Azii", L.A. Abduraxmonov, T.I. Slavkina (1980) "Ozelenitelnyy assortiment i uxod za gorodskimi nasajdeniyami Uzbekistana" manbalarida bog'-parklar, hiyobonlar va aholi yashash xududlari atrofida manzarali butasimonlardan fasllarga mos holda joylashtirish rejalari ko'rsatilgan

Manzarali yaproq va nina bargli daraxt va butalar xavo tarkibini tozalovchi fitonsid moddasini ajratib berish xususiyatiga ega.

Shuningdek manzarali bog'dorchilik va o'rmonchilik respublika ilmiy tadqiqot markazining o'rmonshunos olimlari A.A. Xonazarov, Sh.T. Yusupov, Ye.S. Aleksandrovskiy, R.A. Sultonov va Ye.K. Botmanlar (2008) tomonidan chop etilgan "O'zbekiston xududini ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladigan asosiy manzarali daraxtlar va butalar" qo'llanmasida bir necha hil manzarali daraxt va butalarga denrologik tavsif berilgan. Bunda daraxtlarning manzarli xususiyati, barg yoyishi, gullar namoyon etishi qayd etilgan.

V. Pechenisin va A. Agzamovlarning (1990) "Kultura ozeleneniya" asarida ko'kalamzor xududlar barpo etishdagi yer maydonlarinin tayyorlash ishlari xorijiy davlatlar ya'ni, Angliya, Fransiya va Yapon bog'laridagi ko'kalamzorlashtirish uslublari, manzarali yaproq va nina bargli daraxt, buta va gul turlari, klumbalar, rabatkalar va ularni barpo etish usullari to'liq bayon etilgan.

I.O. Bogovaya va V.S. Teodoronskiylarning (1990) “Ozeleneniye naselyonnykh mest” kitobida aholi yashaydigan va ushbu xududlarga yondosh bo’lgan istirohat bog’lari, hiyobonlar va oromgohlarni ko’kalamzorlashtirish masalalari yoritilgan.

Shuningdek O.A. Dosaxmetovning (2000) “Aholi turar joylarini ko’kalamzorlashtirish” ma’ruza matnlarida aholi yashash hududlarini ko’kalamzorlashtirish va bog’-park qurilishi uslublari ko’rsatilgan. Unda yer maydonlarini tayyorlash, tuproqqa ishlov berish va ekish sxemalari to’liq bayon etilgan.

A. Qayimovning (2006) o’quv qo’llanmasida aholi yashash xududlari va binolar, inshootlar atrofida ko’rkam ko’rinishdagi landshaft barpo etish, unda manzarali daraxt va butalarni joylashtirish sxemalari mavjud. Yuqoridagi ko’pchilik nomlari qayd etilgan adabiyotlarda manzarali yaproq va nina bargli daraxt ko’chatlarini joylashtirish bilan bir qatorda ularni parvarishlash, atrofiga ishlov berish, shakl berish xususiyatlari ham to’liq ko’rsatilgan.

Ablayev S.M Yuldashov Ya.H. (2008) ning ma’lumotlarida, daraxtlarning ahamiyati, shuningdek daraxt va butalarning oziqlanishidan tortib, ildiz tizimi, gullashi va ularning ko’payishi, mevasi, urug’i, balanligi, yoshi va vegetativ ko’paytirish usullari xaqida to’liq ma’lumot berilgan.

I.P. Yelisseyev, S.L. Kubanova va boshqalar (1979) ishtirokida yozilgan qo’llanmada ko’kalamzorlashtirish sohasida ishlayotgan xodimlar uchun muhim hisoblanadi. Bu qo’llanmada daraxt va butalarning ko’pgina turlari xaqida ma’lumotlar mavjud bo’lib, biz ushbu ma’lumotlardan foydalanib yaproq va nina bargli buta turlarining Toshkent shaxri iqlim sharoitiga mos va xos bo’lganlarini tadqiqot ishlarini bajarishda o’rgandik.

Bizga ma’lumki bugungi kunda Mustaqil Respublikamizda xalqimizning ishdan, o’qishdan bo’sh vaqtlarida bermalol dam olishlari uchun zamonaviy bog’lar, hiyobonlar, sayilgohlar va o’rmon parklari zamon talabiga javob beradigan darajada tashkil etilmoqda. Xuddi shunday yashil olam dunyosi sport o’yingohlari, oromgohlar, shifoxonalar, korxonalar va boshqaruv idoralari tarofida xam talabga muvofiq tashkil etilmoqda.

Butun yer yuzasining insonlar yashaydigan barcha xududlarida azal-azaldan atrof-muhitga, uning o'simlik dunyosiga e'tibor berilib undan yashil olam sifatida foydalanib kelishgan. Odamzot buning uchun manzarali yaproq va nina bargli buta turlaridan doimo estetik zavq olib kelganlar. O'simlik dunyosidan foydalanishda ularni ekib ko'paytirish joyining ob-xavosi, iqlim va tuproq sharoiti o'z davrida o'rganilib sharoit yaratilgan.

Yuqorida qayd etilgan adabiy manbalarda daraxtning shakli, bargining rangi va boshqalar xaqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Shahar ko'chalarini, magistral yo'llarni, xiyobonlarni, yo'laklarni ko'kalamzorlashtirish me'yori ko'rsatilgan bo'lib, bosh loyixa va denro loyihalar ko'kalamzorlashtirish uchun tavsiya etilgan.

Bog'larni va parklarni bosh loyiha va denro loyiha asosida barpo etishga katta ahamiyat qaratgan. Bosh loyihada hisob-kitob ishlari aniq rejalashtirilib, bog'da va parkka mos keladigan daraxt va buta turlari tanlab olingan. Ular asosida denro loyiha tuzilgan va ko'kalamzor obyektlar barpo etishda tavsiya berilgan.

Bundan tashqari o'rmonlarni bir nechta guruhga ajratilgan bo'lib, guruhlar o'rmonlarda o'sadigan daraxt va butalar to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Ko'kalamzorlashtirishning barcha xududlaridagi bog'-park qurilish ishlarida asosiy konstruktiv elementlari - yo'lakchalar qurishda, maydonchalar barpo etishda, maysazorlar, gulzorlar barpo etishda shuningdek manzarali daraxt va buta ko'chatlarini o'tqazishda quyidagicha asosiy tayyorgarlik ishlari bajariladi: ajratilgan yer maydonlarini joylarda o'rganib chiqiladi, ko'kalamzorlashtirilayotgan xududlar himoyalaniadi, ushbu yer maydonlarini har hil chiqindi va axlat qoldiqlaridan tozalanadi.

Ajratilgan yer maydonlarida muxandislik ishlari (yer maydonlari yuza qismini tayyorlash, yer osti kommunikasion muxandislik tizimlarini olib o'tish, suv xovuzchalarini qurish, ular qirg'oqlarini mustahkamlash va ko'chat ekish chuqurlarini tayyorlash) to'liq bajariladi. Shuningdek yer maydonlarida planirovka ishlarini o'tkazishda olib chiqiladigan chiqindilarga e'tibor beriladi. Ortiqcha tuproq uyumlari, mayda toshlar, shag'al-qum qoldiqlari yer yuza qismining chuqur ko'ringan joylariga tashlab tekislanadi. Yana bir bor ko'zdan o'tkazib o'sishdan

to'xtagan daraxt va butalar, singan, kasallangan va manzara bera olmaydigan daraxtlar olib tashlanadi. Chiqindi miqdori (100 m^2 maydon hisobidan) aniqlanib $0,5 \text{ m}^3$ gacha qurilish chiqindi miqdori bu eng kam miqdordagi chiqindilar; 1 m^3 gacha o'rtacha va $1,5 \text{ m}^3$ esa kuchli chiqindi miqdori hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan ishlarni bajarish vaqtida texnika xavfsizligi qoidalariga qattiq rioya qilinadi (Qalandarov B.I., Aripov J.U., 2010).

Daraxtlarda parvarishlash kesish ishlari eng asosiy o'rmon xo'jaligi tadbiriy choralaridan biri hisoblanadi. Natijada o'rmon va xar hil ko'rinishdagi daraxtzorlar nafis ko'rinish, yuqori sifatli yog'och beradigan baza, shuningdek ihota daraxtzorlari esa, maxsuldorligi yuqori bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlari xosildorligi qo'shimcha foyda beradi. [45].

Daraxtzorlarining yoshiga qarab quyidagicha parvarishlash kesish ishlarining turlari mavjud: daraxtzorlar ichiga yorug'lik tushirish, yosh daraxtlarda tozalash ishlarini o'tkazish, daraxtlarning yaxshi o'sib, rivojlanib shaklga ega bo'lishidagi kesish, tashlab kesish.

Rejalashtirilgan xududda bog'-parklar barpo qilish uchun oldindan tuzilgan maxsus bosh reja ishlab chiqiladi. Ushbu rejada bog'dagi asosiy inshootlar, temir yo'llar, vagonlar, oshxonalar, kafelar, gul do'konlari va matbuot burchagi ko'rsatiladi. Ushbu rejani tayyorlashda bog'dorchilik bo'yicha va uni manzarali landshaftini ko'rsata oladigan maxsus xodimlar qatnashadi. Reja obdon o'ylab chiqilib so'ng ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Rejada yer osti kommunikasion tizimlar majmui ko'rsatiladi. Bog'dagi xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda maxsus masshtab asosida ushbu reja oxiriga yetkaziladi. Rejaga javobgar shaxslar imzo qo'yadilar va uning vaqti ko'rsatiladi. Yuqoridagi barpo etilgan bosh reja asosida bog'-park xo'jaligining Dendro rejasi tuziladi.

Rejada bog'dalarda barpo etiladigan manzarali daraxt, buta va gul ko'chatlari turlari va miqdori ko'rsatiladi. Bog'da manzarali ko'rinishdagi ko'rkam fasad barpo qilish uchun o'rmonchi-bog'bonlar manzarali daraxt ko'chatlarini to'g'ri tanlay bilishi zarur. Ko'chatlar qayerdan, qaysi vaqtda va qanday holatda olib kelinishi oldindan belgilanadi va kerakli zarur bo'lgan ish qurollari tayyorlanadi. Ko'chat

ekiladigan maydonlar qoidaga muvofiq oldindan tayyorlanadi. Ko'chat ekishda nina va yaproq bargli daraxtlardan kompozision ko'rinishda bog'da tashrif buyuruvchilarga estetik zavq bag'ishlaydigan ko'rinish namoyon qilishda maxsus xududlar tanlanadi (Slavkina T.I., Podolskaya O.I. 1987, Teodoronskiy V.S., Belyy A.I. 1989).

Yashil daraxtzorlar shaharlar va aholi turar joylarida mikro iqlimni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat qilish va dam olish qulay bo'lishi uchun havoning harorati janubiy rayonlarda $+14-30^{\circ}\text{S}$ atrofida, o'rtacha iqlimli rayonlarda o'rtacha $+12-26^{\circ}\text{S}$, shamol tezligi 0,5-3 m/s, havoning nisbiy namligi 30-70%. Noqulay sharoitlarga quyidagilar xarakterlidir: janubiy rayonlarda havoning harorati $+30^{\circ}\text{S}$ dan yuqori, o'rtacha iqlimli rayonlarda esa $+26^{\circ}\text{S}$ dan yuqori yoki shamolning tezligi 1,5 m/s da $+30-35^{\circ}\text{S}$, va 2,5 m/s da $+25^{\circ}\text{S}$, 3,5 m/s da $+15^{\circ}\text{S}$, nisbiy namlik 30% dan past yoki 70% dan yuqori. (Kuzmichev V.I., Pechenisin V.P. 1979, Pechenisin V.P., Agzamov A.A. 2005).

Tez o'sishlik - daraxt o'simliklarining muhim xususiyatidir. Tez o'suvchi daraxt va butalar manzarali va sanitar-gigiyenik samarasini ertaroq berishadi va himoya (ihota) xususiyatini beradi. Shox-shabbalarining bir-biri bilan tez tutashib ketishi tuproqqa parvarish qilish ishlarini tezroq tugatishga imkon beradi. Bu esa daraxtzorlarni barpo etishni arzonlashtiradi.

Daraxt va buta turlarining ko'p vaqt o'sishi bog'-park qurilishida katta ahamiyatga egadir. Bu iqtisodiy nuqtai nazardan tashqari estetik ma'noda ham zarur. Chunki yetuk yaxshi o'sgan daraxt yosh daraxtlarga nisbatan manzarali bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida yashil qurilishda muhim ekologik omillariga havoning harorati, tuproqning harorati, tuproqning namlik va ozuqa rejimi, yorug'lik va xavoning tarkibi kiradi. Tuproqning ozuqa va namlik rejimini boshqarish mumkin, ammo o'ziga hos agrotexnik tadbirlar bilan havoning va tuproqning haroratini boshqarish deyarli mushkul.

O'zbekiston shaharlaridagi asfalt, temir beton, g'isht, granit, mramor, temir tunuka, shifer va boshqalar ikroiqlimning shakllanishida yetakchi rolni bajaradi. Yozning issiq kunlarida ustki qismi ochiq bo'lgan tuproqning, qumning, asfaltning,

betonning, tomlar, devorlarning janubiy tomonlari xavoning harorati $+35-40^{\circ}\text{S}$ bo'lganda, $+70-80^{\circ}\text{S}$ gacha isib ketadi (Kuzmichev V.I., Pechenisin V.P. 1979).

Kunduz kuni tuproqning ustki qismi isib ketib quyosh botganda ham o'zidan issiqlik chiqarib turadi. Yashil daraxtlarni radiasiya haroratini pasaytirishdagi ahamiyati kattadir.

Daraxtlarning barglari o'ziga xos issiqlik xususiyatiga ega. Ular xar hil turdagi xar hil darajadagi issiqlikni qaytarishga va o'ziga qabul qilishga qodirdir. Yosh eman daraxtzori quyosh radiasiyasini 96,8 % ini ushlab qoladi. Qarag'ayzor-96, qoraqarag'ay, terak, eman turlaridan iborat aralash o'rmon 97-98%. Daraxtlarning haroratdan himoya qilish funksiyasi bundan yaqqol ko'rinib turibdi.

O'zbekistonda havoda chang ko'pligi bilan farq qiladi. Yashil daraxtzorlar shahar ko'chalaridagi havoni almashtirib, xarakat qilishiga yordam beradi, ularni tozalaydi. To'liq o'rmonzor havoni changdan to'liq tozalaydi. Zararli mikroorganizmlarning sonini 40-45% ga kamaytiradi.

Shovqinga qarshi kurashda qalin joylashgan baland daraxtlar katta yordam beradi. Yaproq bargli daraxtlar shovqinning 25% ini o'ziga singdirib, 75% ini qaytaradi. Daraxtlarning 10 m dan kam bo'lmasligi kerak va ular xar hil turlardan tuzilishi kerak (Usmonov A.U., Kostekova G.S., 1973).

Daraxt o'simliklari o'zining go'zalligi, shakllari va rangining xar hilligi bilan odamlarning diqqat e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Tabiatning bu go'zal asari xar doim o'zgarib turadi. Tashqi muhit o'simlik organizmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, ularni tashqi ko'rinishi, katta kichikligi, ko'p vaqt o'sishi shu tashqi muhitga chambarchas bog'liqdir. Tarixiy rivojlanish jarayonida daraxt o'simliklari xar hil ekologik sharoitda o'sishga moslasha borgan. Ba'zi turlar (qarag'ay, archa, saksovul va boshqalar) quruq qumli tuproqlarda yaxshi o'sadi, boshqalar esa (qoraqarag'ay, terak, tol) tuprog'i boyroq va namligi yuqoriroq sharoitda o'sadi. O'simliklarning haroratga, yorug'likka, havoning namligiga ham talabchanligi xar hildir. O'simliklar o'zining induvidual rivojlanish jarayonida bir qator davrlarni o'tadi – yuvenildan yetuklik davrigacha. Bu davrda bir o'simlik shox shabbasining

xar hil kattalik, shakli, o'sishining tezligi bilan xarakterlanadi. (Xolyavko V.S., Globa-Mixaylenko D.A.,1980 Xonazarov A.A. 1992).

2. KO'KALAMZOR MAYDONLARNING O'RNI VA AHAMIYATI.

Yashil daraxtzorlar shaharlar va aholi punktlarida mikroiklimni shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat qilish va dam olish qulay bo'lishi uchun havoning harorati 14-30⁰S atrofida janubiy rayonlarda, va 12-26⁰S o'rtacha iqlimli rayonlarda, shamolning tezligi 0,5-3 m/s, xavoninng nisbiy namligi 30-70%. Noqulay sharoitlarga qo'yidagilar xarakterlidir: janubiy rayonlarda xavoning harorati 30⁰S dan yuqori, o'rtacha iqlimli rayonlarda 26⁰S dan yuqori yoki shamolning tezligi 1,5 m/s da 30-35⁰S, va m/s da 25⁰, 3,5 m/s da 15⁰S, shamolning tezligi 0,5 m/sdan past va yuqori haroratlarda 3m/s dan yu qori va manfiy haroratlarda 5 m/s dan yu qori, nisbiy namlik 30% dan past va 70% dan yu qori.

O'zbekistonning shaharlaridagi asfalt, temir-beton, gisht, granit, mramor, temir tunuka, shifer va bosh qalar mikroiklimning shakllanishida yetakchi rolni bajaradi. Yozning issiq kunlarida ustki qismi ochiq bo'lgan tuproqning, qumning, asfaltning, betonning, tomlar, devorlarning janubiy tomonlari havoning harorati 35-40⁰S bo'lganda 70-80⁰S gacha isib ketadi (Kuzmichev, Pechenisin, 1979).

Kunduz kuni tuproqning ustki qismi isib ketib quyosh botganda xam o'zidan issiqlik chiqarib turadi. Yashil daraxtzorlarning radiasiya haroratini pasaytirishdagi ahamiyati kattadir.

Daraxtlarning barglari o'ziga xos issiqlik xususiyatiga ega. Ular har hil turlarda xar hil darajada issiqlikni qaytarish o'ziga qabul qilishga qodirdir. Yosh eman daraxtzori quyosh radiasiyasining 96,8% ni ushlab qoladi, qaragayzor - 96, qora qaragay, terak, eman turlaridan iborat bo'lgan aralash o'rmon 97-98%. Daraxtlarning haroratdan himoya qilish funksiyasi bundan yaqqol ko'rinib turibdi.

O'zbekistonda havo yoz faslida chang ko'pligi bilan farq qiladi. Yashil daraxtzorlar shahar ko'chalaridagi havoni almashtirib, harakat qilishiga yordam beradi, ularni tozalaydi. To'liq, o' rmonzor havoni changdan to'liq tozalaydi, zararli mikroorganizmlarning sonini 40-45% ga kamaytiradi.

Shovqinga qarshi kurashda qalin joylashgan baland daraxtlar katta yordam beradi. Bargli daraxtlar shovqinning 25% o'ziga singdirib, 75%ni qaytaradi. Daraxtlarning 10m dan kam bo'lmasligi kerak va ular xar hil turlardan tuzilishi kerak.

3. KO'KALAMZORLASH TIRISHDA KOMPOZISIYA VA SHAKLLANTIRISHNING KOMPOZISION TURLARI.

Kompozisiya - ma'lum bir maydonda har xil elementlar va predmetlarni badiiy asar yaratish maqsadida joylashtirish san'atidir. U ma'lum fikrni bildiradi. Xamma yashil daraxtzorlar bog' -saroy (park) san'atining (mahsulidir) asaridir. Shu maqsadda daraxtzorlarni yaratishda kompozisiyaning umumiy yo'llarini bilish kerakdir (joylashtirish uslubi, koloriti, kelajagi, proporsionalligi va masshtabligi, kompozisiyaning markazi soya va yorug'liqning nisbati, kontrastligi, gullashning bet o'xtovligi), va daraxtlarning, butalarning, gullarni, gazonli o'tlarni, arxitektura elementi va inshootlarning kompozisiya tarzida joylashishini bilish zarur.

Bog'larni va boshqa obyektlarni tuzishga joylashtirishning uchta uslubi qabul qilingan: regulyarli, peyzajli va aralash.

Daraxtlarning, butalarning va gullarning, inshootlarning har xil rangli bo'lishi ko'kalamzorlashtiriladigan maydonning badiiy ko'rinishini yaratishda asosiy ahamiyatga egadir.

Odamning ko'zi rangning to'lqin uzunligi 400 dan 700 mikrometr (mkm) gacha bo'lganini qabul qiladi. To'lqin uzunligi 400-430 mkm bo'lganlari binafsha rang bo'lib qabul qilinadi, 470-500 - xavorang, 500-570 - yashil, 570-590 - sariq, 590-630 - och sariq, 630-700 - qizil. Bu nurlarning birlashmasi kunduzgi yorug'lik sifatida his qilinadi. To'lqin uzunligi 400 mkm dan kam bo'lgani ultrabinafsha, 700 mkm dan uzunasi - infraqizildir. Ultrabinafsha va infraqizil nurlar ko'rinmaydi.

Rang bo'yicha ma'lum kompozitsiyani yaratishda qo'yidagi ranglar majmuasi farq qilinadi:

- a) **kontrastli** - dumaloq shakldagi gulzorda ranglar bir-biriga qarama-qarshi joylashgan, ya'ni qizil yashil bilan, to'q sariq xavorang bilan, sariq binafsha rang bilan;
- b) **garmonikli** - dumaloq gulzorda bittadan kayin joylashgan, ya'ni qizili sariq bilan, to'k sariq yashil bilan, sariq - havorang bilan, yashil - binafsha rang bilan, xavorang - qizil bilan, va shu ranglarning majmuasi jigarrang bilan;
- v) **disgarmoniyani** aylana shaklidagi gulzorda yonma-yon joylashgan, ya'ni qizil tuk sariq bilan, to'q sariq-sariq bilan, sariq yashil bilan, yashil havorang bilan, havorang binafsha rang bilan, binafsha rang bilan. Bu joylashuv chiroyli emas va ularni toza xolda qo'llash tavsiya etilmaydi, balki neytral ranglar bilan birga ko'llaniladi;
- g) **nyuansli** - bir rangning har xil ko'rinishda bo'lishi: atirgul, och- qizildan - to'k qizilgacha, xavoning, och xavorangdan - to'k havorangacha.

Klumbalar - har xil to'g'ri geometrik shaklidagi gulzorlar. Ular dumaloq (aylanma), uch burchak, kvadrat, to'g'riburchakli, romb va boshqa shakllarda bo'ladi.

Rabatkalar - uzunasi enidan uch marta va undan kattaroq bo'lgan cho'zinchoq, to'g'ri burchakli uchastkalar. Rabatkaning eni 0,5 - 3 m, ko'pincha 1-1,5m.

Mikobardyurlar (aralash rabatkalar) keng tasmasimon uchastkalar, kichik dog', to'g'ri va notug'ri shaklli bir-biriga tutashib turgan, o'simliklar guruhi, asosan ko'pyillik o'simliklardan iborat.

Parterlar - tug'ri geometrik shaklga ega bo'lgan yashil uchastka, uning shakllanishida ko'proq o't o'simliklar qatnashadi.

4. DARAXT O'SIMLIKLARINING BIOLOGIK VA MANZARALI XUSUSIYATLARI.

Daraxt o'simliklari o'zining go'zalligi, shakllari va rangining har xilligi bilan odamlarning diqqat - e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Tabiatning bu go'zal asari har doim o'zgarib turadi. Tashqi muhit o'simlik organizmining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, ularning tashqi ko'rinishi, katta-kichikligi, ko'p vaqt o'sishi shu tashqi muxitga chambarchas bog'liqdir.

Tarihiy rivojlanish jarayonida daraxt o'simliklari har xil ekologik sharoitda o'sishga moslashib qolgan. Bir turlar quruq qumli tuproqlarda yaxshi o'sadi (qaragay, archa, soksovul va boshqalar), boshqalari uchun esa tuprogi boyroq va namligi yuqoriroq sharoit kerakdir (qora qaragay, terak, tol). O'simliklarning harorat, yorug'lik, havoning namligiga ham talabchanligi har xildir. O'simliklar o'zining individual rivojlanish jarayonida bir qator davrlarni o'tadi - yuvenildan

yetuklik davrgacha. Bu davrlarda bir o'simlik shox-shabbasining har xil kattalik, shakli, o'sishning tezligi bilan xarakterlanadi.

Tez o'sishlik - daraxt o'simliklarning muxim xususiyatidir. Tez o'suvchi daraxt va butalar manzarali va sanitar - gigiyenik samarasini ertaroq berishadi va himoya (ixota) xususiyatini beradi. Shox-shabbalarining bir-biri bilan tez tutashib ketishi tuproqqa parvarish qilish ishlarini tezroq tugatishga imkon beradi, bu esa daraxtzorlarni barpo etishni arzonlashtiradi.

Daraxt turlarining ko'proq vaqt o'sishi bog' -park qurilishida katta ahamiyatga egadir. Bu iqtisodiy nuqtai nazardan tashqari estetik ma'noda xam zarur, chunki kari yaxshi o'sgan daraxt manzarali bo'ladi (yosh daraxtlarga nisbatan).

O'zbekiston sharoitida yashil qurilishda muxim ekologik faktorlardan - havoning harorati, tuproqning harorati, tuproqning namlik va ozuqa rejim, yoruglik va havoning tarkibi. Tuproqning ozuqa va namlik rejimini boshqarish mumkin - o'ziga mos agrotexnika bilan xavoning xarorati, tuproqning xarorati deyarli boshqarish qiyin.

Daraxt turlarining shox-shabbasi qo'yidagi guruhlariga bo'linadi:

1. shoh-shabbasi katta, yoyilib ketgan, keng (noto'g'ri shaklda): qayragoch, eman, tol, oq terak, oq tut va baqaqatlar;
2. piramidasimonli (konussimon, dukka o'xshagan(urchuksimoq), kolonna (ustun) simon; piramidasimon eman, o'tkir bargli zarang, piramidasimon terak, g'arb tuyasi, biota va boshqalar).
3. cho'ziqli (olipsimon) va uning variantlari kashtan, zarang va bosh qalar.
4. tuxumsimon: namatsimon (kigizsimon) jo'ka (lipa) Veymutov qaragayi.
5. teskari tuxumsimon shaklda - suriya chibaskusi
6. zont shaklida: aylant, albisiya, italiya qaragayi
7. sharsimon (shtambli va butasimon), patsimon novdali qayragoch, sofora, sibir olmasi, siren va boshqalar;
8. shohlari pastga osilib o'sadiganlar - shohlari pastga osilib o'sadigan qayin, majmuntol, oq terak.
9. chirmovikli - uzum, jimolost, glisiniya, tekoma va boshqalar;

10.yerga yoyilib o'suvchilar: qozoq archasi, qizilnik.

11.yosti qsimon - Lavson kiparisi, mikrobiota.

5. YaShIL DARAXTZORLARNING KLASSIFIKASIYaSI VA NORMALAShTIRISH.

Xamma yashil daraxtzorlar q o' yidagi guruhlarga b o' linadi:

1. Umumiy foydalanish uchun daraxtzorlar;
2. Foydalanish uchun chegaralangan daraxtzorlar;
3. Maxsus foydalanish uchun daraxtzorlar.

Axolining hamma guruhi uchun foydalanishga xizmat qiladigan daraxtzorlar umumiy foydalanish guruhiga kiradi, foydalanishi chegaralangan daraxtzorlarga ayrim guruh odamlari uchun xizmat qiladi, masalan, sanoat korxonalarida - shu korxonaning ishchi, xizmatchilari uchun, maktabda - o'quvchilar, o'qituvchilar, ayrim xollarda ota-onalar uchun.

Maxsus foydalanish uchun barpo etilgan daraxtzorlar ma'lum funksiyani bajaradilar; tuproqni, suvni himoya qiluvchi, qumni ko'chishdan himoya qiluvchi, qorni ko'chishdan himoya qiluvchi va boshqalar.

Daraxtzorlarni normalashtirish - bir odam uchun normalangan (m^2 da) miqdordir. Bu ko'rsatkich - aholi punktdagi aholining soniga bog'liqdir. Shahar qanchalik katta bo'lsa, umumiy foydalaniladigan daraxtzorlarning yashilzor normasi shunchalik kattaroq bo'ladi, kurort shaharlaridan tash qari, bu yerda yashilzorning normasi ko'proqdir.

Umumiy foydalanish uchun xizmat qiladigan daraxtzorlar normasi birinchi navbatda $12m^2$, hisob yili uchun $21m^2$, o'rtacha shaharlar uchun - 9 va $14m^2$; kichik shaharlar uchun - 7 va $7m^2$. Kurort - shaharlar uchun - 18 va $35m^2$, qishloq aholi punkti uchun - 10 va $12m^2$.

Jadval .

**O'zbekistonning shaharlarida umumiy foydalanish uchun
xizmat qiladigan daraxtzorning 1 kishi uchun normasi (m^2).**

Shahar	Tekshirish	1990-2000 yillar-ga hisoblangan vaqtga
Termez	6,9	26,6
Karshi	2,3	21,1
Buxoro	6,1	22,2
Samar qand	3,7	19,4
Namangan	3,5	21,6
Andijan	2,5	30,0
Fargona	2,2	21,7
Urganch	5,0	24,0
Xiva	5,0	30,0

Nukus	5,7	30,5
-------	-----	------

Yashil maydonlarni Toshkent shahrida ko'paytirish parklarni kengaytirish va rekonstruksiya qilish hisobiga, ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish, yangi bulvarlarni barpo etish, maydonlarni ko'kalamzorlashtirish, katta-kichik maydonlarni ko'kalamzorlashtirish hisobiga bajariladi.

6. Ko'kalamzorlashtirishning uslublari.

Loyiha maxsus tashkilotlari loyihalarni ishlab chiqarishadi.

Mavzular guruhi:

1. Ushbu aholi punktini ko'kalamzorlashtirishning tarmog loyihasi (umuman);
2. Har xil kategoriyali yangi daraxtzorlar barpo etish loyihalar tarmog'i (parklar, bog'lar, bulvarlar, kvartla ichining, yo'lining va boshqa obyektlarning ko'kalamzorlashtirish).
3. Mavjud bo'lgan daraxtzorlarni rekonstruksiya qilish loyihalari.

Mavzuga qarab boshlangich materiallarni yigish xarakteri o'zgaradi (loyihadan oldingi etap), ishlarning hajmi va xarkteri (haqiqiy loyihalash).

Haqiqiy loyihalash. Loyiha - qidiruv ishlari bilan ilgarirok tanishib chiqilgandan so'ng va bu materiallar tasdiqlangandan so'ng loyihalash ishiga kiritiladi. Loyiyaning ikki stansiyasi belgilanadi. Texnik loyiha va ishchi chizmalar.

Loyihalashtirishning birinchi stadiyasi (boshqacha maydonni tayyorlash, tekislash masalalarini o'z ichiga qamrab oladi. Texnik loyiha grafiklar va tushuntirish xatidan iborat. Grafik materialning asosi - bu bosh loyiha va dendroloyiha. Bosh loyihada maydonning plani ko'rsatiladi, maydonchalar, yo'llar, xaykallar, daraxt, butalar va gullar ekiladigan joylar. Dendroloyihada daraxtlarning turlari va joylashi ko'rsatiladi. Ko'pincha birlashgan chizma (bajariladi) chiziladi va u ko'kalamzorlashtirish plani, yoki eskizli loyiha deb ataladi.

Moliya-hisob loyihasi alohida tuziladi (bo'limlar, bo'yicha) va xamma obyekt uchun umumiy hisob-kitob tuziladi.

«Ishchi loyiha» davrida qismlarga bo'lish va ko'chat ekish chizmasi ishlab chiqariladi. Obyektlar chizmasida imoratlar, maydonchalar, yo'llar, gazonlar, gulzorlarning katta-kichikligi ko'rsatiladi, daraxt va butalar uchun uchastkalar belgilanadi. Undan tashqari, shu elementlar oraligi ko'rsatiladi. Ko'chat ekiladigan chizmada daraxt, butalarning ekiladigan joyi, ular orasidagi masofa ko'rsatiladi, undan tashqari klumbalar, rabatkalar, va boshqa gulzorlar chizmasi belgilanadi.

Ko'kalamzorlashtirish ishlarini loyihalashtirishda asosiy uchta uslubdan keng foydalaniladi: regulyar (muntazam) uslub, peyzaj uslubi va aralash (regulyar va peyzaj birgalikda) uslub.

Regulyar – uslubda barcha ko'kalamzorlash-tirish elementlari va obyektlari muntazam yoki to'g'ri geometrik shaklga ega bo'ladi. Gulzorlar aylana, to'g'ri to'rtburchak, rombsimon, uchburchak va x.k. Yo'laklar to'g'ri chiziq yoki yarim aylanasimon shaklda bo'ladi. Daraxt, buta va gullarning ekilish sxemalari qat'iy belgilab olinadi. Ekilish sxemasiga muvofiq ravishda bir xil turdagi va bir xil o'lchamdagi manzarali daraxt, buta va gul o'simliklari tanlanadi. Bundan tashqari ranglarni jamlanma holida joylashtirishga ham alohida ahamiyat beriladi.

Agar gullarning rangi biri ikkinchisni to'ldirib yoki orttirib ko'rsatsa, u yaxshi qabul qilinadi (yashil-qizil, havorang-to'q sariq). Qizil, to'q sariq va sariq ranglar – issiq, yorqin va uzoqdan yaxshi ko'rinadi, yashil, havorang va binafsharang – sovuq, xira va bir oz masofada mavxum bo'lib qoladi, atrofdagi fonda yutilib ketadi. Oq

rang boshqa xamma ranglar bilan mos keladi. Kumushrang va kulrang o'simliklar neytral rang hisoblanadi. Ranglar jamlanmasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kontrast – ya'ni, qarama-qarshi ranglarni joylashtirish. Qizil-yashil, havorang-tuqsarik, sariq-binafsharang.
2. Garmonik – ranglar bittadan keyingisi bilan joylashtiriladi. Qizil-sariq, to'q sariq-yashil, sariq-ko'k, yashil-havorang.
3. Disgarmonik – ranglar yonidagisi bilan joylashtiriladi: qizil-to'qsariq-sariq-yashil-ko'k-havorang-binafsharang.
4. Nyuans – bir xil rangning och rangidan-to'q rangigacha: och qizildan-to'q qizilgacha, havorangdan-to'q ko'kgacha.



Bunda birinchi ikki sonning yig'indisi uchinchi sonni beradi va birinchi son ikkinchi sonning yarmisidan katta bo'ladi: 3:5:8, 5:8:13, 8:13:21, 13:21:34. Eng chiroyli gulzorlar gul ekinlari, yo'laklar va maysazorlarning 3:5:8 yoki 5:8:13 munosabatida hosil qilinadi.

Misol. Gulzor uchun 400 m² yer ajratilgan. «Oltin proporsiya» qoidasiga ko'ra, (3:5:8) yig'indida 16 ta qism hosil bo'ladi: $400 \text{ m}^2 : 16 = 25 \text{ m}^2$ ni oltin proporsiya sonlariga ko'paytirsak quyidagilarni olamiz: $25 \text{ m}^2 \times 3 = 75 \text{ m}^2$ – bu maydon gul ekinlariga (klumbalar, rabatkalar, hoshiyalar, guruhlar, alohida ekinlar) uchun ajratiladi; $25 \text{ m}^2 \times 5 = 125 \text{ m}^2$ – bu maydon yo'lakchalar uchun ishlatiladi; $25 \text{ m}^2 \times 8 = 200 \text{ m}^2$ bu maydon maysazor uchun ajratiladi.

- a) Axoli punktlarida daraxtzorlar bir tekisda, aholi soniga proporsional ravishda joylashtirilishi kerak; ammo obyektning markazida daraxtzorlar ko'proq bo'lishi kerak;
- b) Obyektgacha bo'lgan masofa aholi foydalanishi uchun qulayroq bo'lishi kerak;
- c) Umumiy foydalaniladigan obyektlarga kelish uchun yaxshi yo'llar bo'lishi kerak;
- d) Iloji boricha mavjud yashil daraxtzor suv havzasidan foydalanish kerak;
- e) Ko'p maqsadli alohida obyektlarni e'tiborga olish kerak.

Masalan, park (bog') uchun maydon tanlashda shuni e'tiborga olish kerakki, agar shaharda kuchli shamol esib tursa, o'sha tomonga daraxtlarni joylashtirish kerak, daryo yonida, bosh qa suv obyektlarida bog'lar suvning yoniga (yaqiniga) joylashtiriladi.

Foydalanishi chegaralangan daraxtzorlarda, shu yerdagi inshootga bog'liqdir.

Maxsus foydalanish uchun barpo etilgan daraxtzorlar maqsadga muvofiq, funksiyani bajaradi. Masalan, zavod va shaharning aholi yashaydigan qismi orasida shamoldan himoya qiluvchi, suv obyekti oldida - suvni himoya qiluvchi daraxtzorlar.

O'zbekistonning shaharlaridagi yashil daraxtzorlarni loyihalashtirishda (loyihada). quyidagi joylashtirish tarmog'i qo'llaniladi:

- 1) to'g'ri burchakli - kuchli shamol esadigan shaharlar, vohalarda yarim cho'llarda (Yangiyer, Nukus va boshqalar).

- 2) chiziqli - kuchsiz shamolli tog' oldi rayonli shaharlarda (Toshkent, Fargona, Samarqand, Andijon);
- 3) aralash - to'g'ri burchakli va chiziqli tarmoqlar murakkab relyefli shaharlarda (Angren, Olmaliq, Chirchiq, Namangan) va cho'l bilan chegaralarda (Buxoro, Qarshi);
- 4) Lokalli - qumli cho'llarda joylashgan shaharlarda (Tamdi, Gazli).

L.V.Luns yangi tarmoqni taklif qildi, ular qo'yidagicha; shahar va sanoat rayonlari yashil daraxtzorlar bilan ajralib turadi. Turar joy rayonlar bulvarlar bilan ajratilib turiladi. Mikrorayonni markazida parklar joylashadi. Parklar, bog'lar, bolalar bog'lari shaharda bir tekisda joylashadi. Markaziy shahar parki, botanik va zoologik bog'lar suv havzalari kirg'oklarida joylashgan. Shaharning ichidagi ko'kalamzorlar tarmog'i o'rmon parki halkasi bilan bog'langan.

Demak, tabiiy va loyiha sharoitlariga bog'liq ravishda daraxtzorlarni joylashtirishda har xil chizmalar ishlatilishi mumkin.

6.1. Shaxarda daraxtlarni joylashtirish.

Daraxtlarni guruh holda joylashtirishning quyidagicha turlari mavjud: soliter, bosket, kichik o'rmon (rozza), qatorlab ekilgan daraxtzorlar, yashil to'siqlar, yashil devorlar, xar hil shakl berib ekilgan ekinzorlar; chirmashib o'suvchi o'simliklar.




Soliterlar – daraxtni yakka holda joylashtirish. Bunday joylashtirishda daraxtlarning manzaraboplik xususiyatlari inobatga olinadi: shox-shabbasining shakli, barglari, gullari va mevalarining rangi.

Soliterlar uchun quyidagi daraxt va butalarni tanlash mumkin: eman, sharq chinori, akasiya, lola daraxti, jo'ka, majnun tol, virgin archasi, qrim qarag'ayi, ligustrum va boshqalar. Soliterlar ochiq joyga yoki yo'lkalarning oxiriga ekiladi, fon sifatida gozondan foydalanish mumkin.

Guruh – ko'zga yaxlit ko'rinadigan o'simliklar majmuasi. Xajmiga ko'ra guruhlar kichik (2-3 talik), o'rta (4-7) va katta (8-16) ga bo'linadi. Tuzilishiga qarab oddiy va murakkab guruhlar ajratiladi. Oddiy guruhlar faqat bir turdan yoki bir nechta turdan

guruhlarda
shabbasining
Guruhlar zij
shox-shabbali
dala zarangi va



tashkil topadi. Murakkab o'simliklar bo'yiga va shox-shakliga ko'ra tanlanadi. bo'lishi mumkin, bunda zich daraxtlar ishlatiladi: jo'ka, boshqalar, hamda nafis,

panjarasimon bo'ladi, ularda nafis shox-shabbali daraxt turlari qo'llaniladi (gledichiya, safora va boshqalar). Guruhdagi o'simliklarning o'zaro uyg'unlashuvi uchun shox-shabbasining shakli yon shoxlarining tuzilishi, bargining qalinlik darajasi, ekologik va manzaraboplik jihatdan bir-biriga mutanosibligi nazarda tutiladi. Butalardan tashkil topgan guruhlar yaratishda har xil turlarining bir vaqtda gullashi yoki mavsumga qarab, har xil vaqtda gullashiga e'tibor qaratiladi. Guruhdagi daraxtlar orasidagi masofa, odatda, 3-4 metrni tashkil etadi. Bu masofani ikki baravarga qisqartirish mumkin, lekin, kelgusida siyraklatish sharti bilan. Guruhdagi butalar orasidagi masofa o'simliklarning hajmiga qarab 0,5-1,5 metr bo'ladi. Guruxlarda daraxt va butalar aralash ekilganda ularning orasidagi masofa 1-3 metirni tashkil etadi.

Kichik o'rmon (roua) – 0,2 gektar va undan ko'proq maydonni egallaydi. O'rmonlar ignabargli, yaproq bargli va ignabarg – yaproq bargli ekinlardan barpo etiladi. Tarkibiga ko'ra, o'rmonlar toza va aralash, shakliga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi. Kichik o'rmonlar daraxt va butalardan yaratiladi. To'g'ri yo'nalgan qatorlar oralig'i (1x1 m; 3x1 m; 4x4 m; 3x5 m va undan ortiq) bo'lishi; parallel ravishda qayrilgan chiziqlar bo'yicha, qayrilish radiusi katta bo'ladigan bo'lsa (qatordagi daraxtlar oralig'i xamda qatorlar orasi 4-5 m), shuningdek, erkin xolda yaratilishi mumkin. O'rmon massivida daraxtlarni erkin xolda joylashtirganda, baland bo'yilari markazda, pastroq bo'yilari – chetroqda ekiladi. Soyaga bardosh

beradigan daraxt turlari uchun kam oraliq masofa, yorug'sevar turlar uchun – keng oraliq masofa olinadi.

Yashil devorlar – balandligi 2,5-4 m, eni 1-1,3 m bo'ladigan daraxtlar va butalardan tashkil topgan tig'iz ekinzorlar. Ular bir qatorli va ikki qatorli qilib yaratiladi. Qatorlardagi o'simliklar oralig'i bir qatorli ekinlarda 0,67 m (soyaga chidamlilar) va 1 m (yorug'sevarlar) o'simliklar uchun. Ikki qatorli ekish usulida qatordagi oraliq masofa 1-1,25 m; qatorlar orasi – 0,6-0,7 m. Yashil devorlarni yaratishda ignabargli va yaproqbargli ekinlardan foydalaniladi, bunda o'simliklarda ignachalar bo'lishiga e'tibor qaratiladi (gledichiya, maklyura). 10 metr joyga bir qatorli usulda 10-15 ta ko'chat, ikki qatorlida esa – 16-20 ko'chat ekiladi.



Bosketlar – geometrik shaklga ega bo'lgan yopiq joylar, maydonchalar yashil to'siqlar yoki yashil devorlar bilan to'silib, ularning ichki qismida favvoralar yoki gulzorlar joylashtirish mumkin.

Muntazam shaklda ekilgan, maxsus shakl berilgan ko'p qatorli (8 ta va undan ko'proq) tig'iz ekinzorlarni ham bosketlar deb atash mumkin.

6.2. BOG' VA PARK O'RMONLARINI JOYLASHTIRISH.

Madaniyat va dam olish parklari - yirik yashil massivlar bo'lib, u yerda mehnatkashlarning dam olishi katta siyosiy - tarbiya ish bilan birga olib boriladi.

Bu yerda kutubxona, lektoriy, ko'rgazma, attraksionlar bo'ladi, xalq sayillari bo'lib turadi, kinofilmlar va boshqa tadbirlar olib boriladi.

Madaniyat va istiroxat bog'lari turar joy massivlari bilan qulay ravishda transport vositani bilan bog'langan bo'ladi, mikroiqlim va sanitar gigiyena sharoiti yaxshi bo'lishi kerak.

Park maydonning balansi qo'yidagicha bo'ladi, yaxshi daraxtzorlar - 75-78%, alleyalar va yo'lkalar - 10-14, maydonchalar- 8, inshootlar 3%. Shunday qilib, parkning asosiysi - yashil daraxtzorlar.

Parkning tuzilish stili regulyarli, peyzajli, va aralash, ya'ni regulyarli va peyzajli stillardir.

Odatda parklarda qo'yidagi zonalar ajratiladi:

- a) tamosha tadbirlarini o'tkazish zonasi (attraksionlar kinoteatr, yozgi teatr va bosh qalar), u park maydonning 8%ga teng.
- b) madaniy - oqartuv tadbirlar zonasi (ko'rgazma, ochiq estrada, o'yin uchun maydoncha, o'yinlar uchun va bosh qalar) - 8%.
- c) fizkultura va sport zonasi - 15%.
- d) bolalarning dam olish uchun zona - 5%.
- e) kattalar dam olish uchun - 60%.
- f) xo'jalik zonasi - 4%.

Skverlar - ko'kalamzorlashtirilgan maydonlar bo'lib manzarali, qisqa vaqt ichida dam olish uchun xizmat qiladi. Ular yo'llarning kesishgan joylarida, vokzallarga yaqin joylarda, uylar orasida joylashadi. Uning maydoni 0,25 dan 10 gektargacha, ko'pincha esa 1-2ga.

O'rmon parki - axoli punktidan uncha uzoq bo'lmagan joyda joylashgan yashil daraxtzorlar (shahar transportida 1-1,5 soatda boriladi. O'rmon parklari asosan tabiiy daraxtlarni dam olish uchun moslashtiriladi. Bunda daraxtlar turi ko'paytiriladi, quriladi, sun'iy o'laklar barpo etiladi.

7. KO'ChALAR, BULVARLAR VA KVARTALLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISH.

Ko'kalamzorlashtirishning asosiy turi - daraxtlarni qatorlab ekish (trotuar va yo'l orasidagi yerda), trotuarning xarbir tomonida bir, ikki, uch va undan ko'proq qatorlar bo'lishi mumkin. Bu yerlarda jonli devor, ignabargli daraxtlar xam ekiladi. qo'shimcha daraxtlar yo'lni ikkiga bo'lib turadigan o'rtaga ekiladi, uylar oldida ekiladi, yo'l xarakatini tartibga solib turadigan yerlardagi orolchalarni ko'kalamzorlashtirish, uylarning vertikal yashilzorlari tuziladi.

Yo'lni bo'lib turuvchi polosada, uning kengligi 2-3m bo'lsa gazon barpo etiladi, uning fonida butalar va gullar ekiladi.

Uylar oldidagi daraxtzorlarni alohida polisadnik (uy oldidagi kichkina bog'cha, gulzor) yoki ochiq xovlilar - kurdonalar barpo etiladi. Palisadniklar jonli devor bilan o'raladi (chegaralari o'rtasida mevali yoki manzarali daraxtlar ekiladi. Undan tash qari gullar yoki chirmovuk o'simliklar ekilishi mumkin.

Magistral (bosh) ko'chalarda. Transport harakati kuchli bo'lgan joylarda yo'lovchilarni chang va avtomashinalarning dvigatelidan chiqqan gazdan himoya qilish uchun shu yo'lning ikkala tomoniga ikki qator daraxtlar va jonli devor ekiladi.

Ko'chalar kenglik (ko'chalarning uni g'arbdan sharqqa, uylarning old tomoni (fasadi) shimolga boshqa tomoni janubga qaratilgan) va uzunlik yo'nalishida bo'ladi (ko'chaning o'qi shamoldan janubga old tomoni sharqqa va bosh qa tomoni g'arbgga qaragan bo'ladi).

Kenglik ko'chalarda soya yo'lakga tushishi kerak, agar uylar ko'p qavatli bo'lsa, ular soyani yo'lakga tushiradi, shuning uchun bu yerlarda ochiq joy qoldirish mumkin. Ko'chaning qarama qarshi tomonda trotuarni soyalatish kerak, chunki

shimoliy fasadlar kamroq qiziydi, sharq va g'arbga qaragan fasadga nisbatan, demak, soylashga talab bo'lmaydi.

Bulvarlar - (xayobonlar, xayobonsurat bog'lar) uchun yashil yer - ko'chaniq uqida joylashgan (kengligi 40m dan kam emas, yo'l va trotuar orasiga joylashgan yoki qirgoqda joylashgan. Bulvar (xayobon) ning kengligi 18-50 m va undan ko'proq.

Kvartal orasidagi (ichidagi) yashil daraxtzorlarning ta'miniy balans:

Yashil daraxtzorlar - 65%.

Maydonchalar - 24.

Alleyalar va yo'lkalar - 10.

Inshoatlar (skameykalar, besedkalar) - 1%.

Mikrorayon va kvartallarni ko'kalamzorlashtirishda qo'yidagilar bo'lishi shart:

1. uylar va maydonchalar orasida qulay yo'lkalar.
2. turar uy va boshqa inshoatlar kelish imkoni bo'lishligi.
3. shovqin va chanagdan himoyalanih.
4. daraxtlarni maydonchalar, dam olish joylar, xo'jalik va sport maydonchalarini birbiridan ajratish uchun ekish.
5. daraxtlar, butalar, gullarning peyzaj va regulyar tuzilishdan foydalanib chiroyli kompozisiyalarni tuzish.
6. yashil daraxtlarni shunday joylashtirish kerakki, shamol, yaxshi o'tib tursin.
7. Turar - joylar uchastkalari ko'kalamzorlari yo'llardan va ko'chalardan qalin ekinlar bilan ajralib turishi kerak.

Gazon barpo etish

Gazon ekish texnologiyasi:

1. Tuproqni tayyorlash – gazondan uzoq muddat foydalanishga imkon beradi. Buning uchun tuproqning tarkibi o'rganiladi. Tuproqning kimyoviy tarkibi, jumladan og'ir metallar miqdori analiz qilinadi. Tuproqning kislotaliligi va radioaktivligi aniqlanadi.
2. Maydonni tayyorlash – tuproq yirik chiqindilar va ildizlardan tozalanadi.

3. Drenaj va qumli yostiqchalar o'rnatiladi. Agar zarurat bo'lsa, tuproqning o'simlik o'suvchi qatlami almashtiriladi.
4. Tuproqni oziqlantirish.
5. Urug' sepiladi va 1-2 sm qalinlikda qum bilan yopiladi.

Drenaj. Tuproqqa bo'lgan talab va drenaj tizimiga alohida-alohida qaralmasligi kerak. Tanlangan tuproq turi drenajga bo'lgan talabni aniqlashi kerak yoki tanlangan drenaj tizimiga mos tuproqni tanlash kerak. Drenajning quyidagi turlari mavjud: 1) ochiq drenaj; 2) yopiq drenaj; 3) aralash drenaj (ochiq va yopiq qo'shilgan).

Drenaj tizimiga ko'proq sport gazonlari zarurat sezadi. Chunki tepkilanadigan gazonning qayta tiklanishi va ildiz tizimining yaxshi o'sishi uchun namlik va kislorodning maqbul jamlanmasi mavjud bo'lishi kerak.

Drenaj o'rnatish uchun maydonda 1,5-2 m chuqurlikda ariqchalar kovlanadi. Ariqchaning eni 0,5 m, ariqchalar orasidagi masofa 1,5-2 m. Birinchi navbatda ariqchalarga 5-7 sm qalinlikda yirik shag'al solinadi. Uning ustiga zanglamaydigan va ezilmaydigan, quvurlar yotqiziladi. Quvurlar diametri 15-20 sm bo'ladi va bir tomonida teshikchalar hosil qilinib, shu tomoni yuqoriga qaratib yotqiziladi. Quvurlar ichidan suv oqadigan qiyalikda joylashtiriladi va quyi qismida suvlarni yig'uvchi quvurga birlashtiriladi. Yig'uvchi quvur drenajga perpendikulyar xolatda joylashtiriladi va uning teshikchalari bo'lmaydi. Bu quvur ham o'z navbatida chiqindi suvlar tarmog'iga ulanadi. Quvur ustidan 5-7 sm qalinlikda yirik shag'al, 3-5 sm qalinlikda mayda shag'al va qum bilan ko'miladi. Qum ustiga tuproq tortib qo'yiladi va ariqchalar o'rni zichlanadi.

Sug'orishning ikki turi mavjud: 1) ustki sug'orish (qo'lda yoki avtomatik sug'orish tizimida bajariladi); 2) tuproq ostidan sug'orish (qattiq yoki egiladigan zanglamaydigan quvurlardan foydalaniladi). Yozgi issiq haroratda sug'orilgan tuproq tez quriydi. Bunday paytlarda tuproq ostidan sug'orish afzaldir, chunki ustki sug'orishda barglarda turib qolgan suv tomchilari linza hosil qiladi va barglarni kuydirib jiddiy zarar keltirish mumkin. Sug'orish vaqti ertalab soat 9:00 gacha va kechqurun soat 18:00 dan keyin. Gazonni tuproq 15-20 sm chuqurlikkacha

namlanguncha uzoq muddat sug'orib qo'yiladi. Chunki, tez-tez va oz-ozdan sug'orish begona o'tlarning ko'payishiga sababchi bo'ladi. Har kunlik yengil sug'orish tuproqqa chuqur singimaydi. Ko'p gazonlar uchun bu havflidir, chunki gazonning ildiz tizimi faqat yuqorigi qismida yaxshi rivojlanadi va tepkilanishiga chidamliligi pasayadi. Sug'orish me'yori 1 kv.m ga 40 l (o'rtacha) bo'lishi kerak. Suv tuproqda to'planmasdan yaxshi singishi uchun sekin sug'orilishi kerak. Buning uchun mayda teshikli sug'orish tizimlaridan foydalanish kerak.

Gazonni kesish. Birinchi kesish gazon 10-12 sm o'sganda o'tkaziladi. Bundan erta kesilsa yosh o'simliklarga jiddiy shikast yetishi mumkin. Agar kech kesilsa, pastki qismiga soya berib, xlorofil miqdorini kamaytiradi va kesilgandan keyin, moddalar almashinuvi buziladi. Natijada gazon o'sishi qiyinlashadi va manzarasini yo'qotadi. Keyingi kesishlar esa gazonning holati, ob-havo sharoiti va vegetasiya davri (yil fasli) ga qarab 5-8 sm bo'lganda kesiladi. Kesish oralig'i bir oyda 4-5 marta. Gazonni kesishdan maqsad faqat tashqi ko'rinishi uchun emas, balki begona o'tlarga qarshi kurashishda ham samarali usuldir. Ikki pallali begona o'tlar ustki qismi kesilgandan keyin qaytadan o'sib chiqishi qiyinlashadi. Gazon esa oson o'sadi va barg va ildizidan keluvchi oziq moddalar harakatini tez tiklaydi. Ikki pallali o'simlaklar esa yuqori qismini (barglarni) tez tiklab olmaydi, barglaridan uglevod ololmaydi va ildiz tizimi doimiy stressda bo'ladi.

Gazonni oziqlantirish. Gazonni doimiy kesish va sug'orish tuproq tarkibidagi oziq moddalarning chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Gazonning doimiy manzaraviyligini saqlash uchun mavsum davomida 5-6 marta azotli o'g'itlar berib turish kerak. Azot bilan 1-oziqlantirish erta bahorda (qorlar erigandan keyin), ikkinchisi 1-kesishdan so'ng va oxirgisi avgustning oxirida o'tkaziladi.

Azotning me'yori 100 kv.m. ga 300 gr. Masalan, ammiakli selitra (azot miqdori 34,6%) dan foydalansak 100 kv.m ga 1 kg o'g'it sepiladi. Fosforli o'g'itlar 3 marta beriladi: birinchisi erta bahorda azot bilan birga, ikkinchisi mavsum o'rtasida va uchinchisi kaliyli o'g'it bilan sentyabrning o'rtalarida beriladi. Kaliyli o'g'itlar ham 2-3 marta berilishi kerak. Birinchisi erta bahorda azot va fosfor bilan birga va oxirgisi sentyabr o'rtalarida fosfor bilan birga beriladi. Shuni esda tutish

kerakki, kaliy past haroratga chidamlilikni oshiradi va yaxshi qishlashga yordam beradi. Kompleks o'g'itlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi (ammofoska, nitroammofoska, azofoska va x.k).

Zamonaviy mineral o'g'itlarning gazon uchun maxsus ishlab chiqilgan turlari mavjud. Shulardan KEMIR – tarkibida mikro va makro elementlar mavjud. 100 kv.m. ga 5 kg sepiladi. Bundan tashqari Gollandiya va Germaniyada ishlab chiqariladigan o'g'itlar mavjud. Ular molibdenovokisliy ammoniy, bor kislotasi, rux va mis sulfat.

Tuproqning kislotaliligi rN 4,5 va undan yuqori bo'lsa oxak bilan ishlov berish kerak. Buning uchun 100 kv.m. ga 20-30 kg maydalangan oxak solinadi. Oxak kech kuzda yoki erta bahorda solinadi.

Sport gazonlari o't ustida o'tkaziladigan musobaqalar uchun mo'ljallangan maydonlarda barpo etiladi. Bunda sport turi va maydondan foydalanish davomiyligiga qarab o'simliklarning botanik tarkibi aniqlab olinadi. Sport gazonlari zich ekilishi, past qilib kesilishi va elastikligi, hamda, tepkilanish va bo'linishga chidamliligi bilan ajralib turadi. O'yingohdagi o'tloq ishtirokchilarning erkin harakatlanishi, koptokning yetarlicha sakrashi va maydonda harakatlanishini ta'minlashi kerak (ob-xavo sharoitlari bundan mustasno). Sport inshootlarini loyihalashtirishda namlik sig'imi va drenaj tizimiga e'tibor qaratish lozim.



Sport gazonlari o'yingohlardan tashqari o'yin va sport maydonlarida, oromgoh va maktablar, sportning xar xil turlari: golf, futbol, o't ustida xokkey, katta tennis bilan shug'ullanish uchun yaratilgan dam olish uylarida barpo etiladi.

Faol foydalanishga va tepkılanishga chidamli gazon barpo etish uchun o'tlarning maxsus turlari tanlanadi. Sport gazonlari uchun asosiy o't turi sifatida qizil va trostnikovaya ovsyaniya, o'tloq myatliki, yaylov raygrassi. O'yingohning foydalanilishiga qarab gazonni haftasiga 1 yoki 2 marta kesish mumkin. Sport gazonlarini doimiy parvarishlab turish intensiv va uzoq muddatli bosimga chidamlilikni ta'minlaydi.

Mavritan gazonlari – butun yoz davomida chiroyli gullab turuvchi rang-barang maydonlardir. Ular shoxlari yirik, ko'p yillik o'tlardan va bir yillik gullardan tashkil topadi. Mavritan gazonlarining asosiy fonini past bo'yi (yaylov raygrassi, ovsyaniya, oddiy va oq polevisa, o'tloq myatliki) o'tlar tashkil etadi. Ingliz mutaxasislarining tavsiyasiga ko'ra o'tlar aralashmasi tarkibida ovsyaniya va polevisa bo'lishi shart. Aralashma



tarkibida odatda 10-15 turdagi chiroyli gullovchi bir yilliklar bo'ladi. Bularga past bo'yli tur va shakllardan: smolevka, qizil va havorang len, vasilka, klarkiya, bir yillik delfinium, xitoy chinniguli, eshsholsiya, gipsofila, iberis, nigella, bir yillik kalendula, linariya, o'tloq kleveri, nezabudka, o'tloq romashkasi va x.k. Ba'zan chiroyli gullovchi past bo'yli ko'p yilliklar ham ishlatilishi mumkin.

Urug'lar aralashmasida chiroyli gullovchi o'simliklar 20% dan oshmasligi kerak. 1 m² maydonga odatda 10 g tayyor urug'lar aralashmasi sepiladi.

Mavritan gazonlarini parvarishlashda ularni kesishga asosiy e'tibor qaratiladi. Qoida bo'yicha bu gazon erta kesilmaydi ya'ni bahorda gullovchi gullar urug'bermaguncha (odatda yozning o'rtalariga, iyulga to'g'ri keladi). Ikkinchi va oxirgi marta gazon sentyabr-oktyabrda kesiladi. Agar kuzda gullovchi gullar bo'lsa, kesish keyinroqqa qoldiriladi. Kesganda 8-10 sm qoldirib kesiladi va qoldiqlar maydondan chiqarib tashlanadi.

Chiroyli gullovchi bir yilliklar yil so'ngida qurib qoladi. Shuning uchun xar yili qayta ekishga to'g'ri keladi. Bu jixatdan ko'p yillik chiroyli gullovchi gazonlar yaxshi samara beradi.

Ko'p yillik gazon fonida chiroyli gullovchi ko'p yillik o'simliklar guruhi (qishga chidamli tur va shakllari): proleska, podsnejnik, muskari, lola, nargis, akvilegiya, qo'ng'iroqgul, margaritka, romashka va boshqalar ekiladi.

Mavritan gazonlari yozda gullovchi o'tloqni namoyon etadi. Bu gazonni uyga kiriladigan eshik yonidagi maydonda, sun'iy suv inshootlari qirg'og'ida, daraxtlar tanasi atrofida ekish tavsiya etiladi. Mavritan gazonlari peyzaj stilida barpo etilgan park va bog'lar uchun mos keladi. Gazon ichidagi gullarning bosilishi (tepkilanishi) ni oldini olish uchun ular ichiga yo'lak o'tkazish kerak. Yosh mavritan gazonlarini mavsum davomida 3 marta (5-8 sm qoldirib) kesishni talab etadi. Bu gazon oddiylariga qaraganda baland qoldirib kesiladi, shuning uchun ham manzarali ko'rinish hosil qilishda oddiy gazonga nisbatan samaraliroqdir. Mavritan gazonlarini parvarishlash oddiy gazonniki kabi bo'ladi.

-jadval

Gazon urug'larini ekish me'yori

№	Gazon turlari	Sinfi	urug'ining miqdori	o't urug'lari- miqdori	Uruvchanlik, kamida, %	Ho'jalik yaroqliligi.	og'irligi,	Ekish me'yori kg/ga
1.	O'tloq myatliki	I	95	500	75	-	0,25	45-55
2.	Oddiy myatlik	-						50-60
3.	O'mon myatliki	-						60-70
4.	Qizil ovsyanisa	I	96	250	85	-	1,10	100-120
		II	90	1000	80	72		
		III	80	2500	60	-		
5.	O'tloq ovsyanisasi	I	97	250	90	-	1,85	120-140
		II	92	1000	85	78,2		
		III	85	3000	75	-		
6.	Ovsyanisa ovechya	-						90-110
7.	Oq polevisa	I	95	500	85	-	0,15	25-30
		II	85	4000	75	63,75		
		III	75	10000	65	-		
8.	Sochsimon polevisa	-						20-25

9.	Oddiy polevisa	-						20-25
10.	Yaylov raygrassi	I	97	250	90	-	2,15	120-140
		II	92	1000	85	78,2		
		III	85	3000	75	-		
11.	Vestervold raygrassi	I	95	250	90	-	1,55	
		II	85	1000	80	68		
		III	80	2500	70	-		
12.	Baland bo'yi raygrass	I	95	250	90	-	2,70	
		II	85	2000	80	82,48		
		III	80	5000	70	-		
13.	Raygras mnogoukosniy	-						100-120
14.	Bir yillik raygrass	-						100-110
15.	Oddiy grebennik	-						70-90
16.	O'tloq "tulkidumi"	I	90	500	85	-	0,80	70-80
		II	80	2000	75	60		
		III	75	4000	60	-		
17.	Oq klever	-					0,69	40-50
18.	Yeja sbornaya	I	96	250	90	-	1,20	100-120
		II	90	1000	80	72		
		III	80	4000	70	-		

7.1.BOLALAR BOG'ChASI VA MAKTABLARNI KO'KALAMZORLASH TIRISH.

Ko'kalamzorlashtirishdan maqsad - yashil iqlim va sanitar - gigiyenik sharoitlar yaratish, uchastkalarni daraxtlar bilan ajratish, bolalarni o'simliklar bilan tanishtirish.

Bog'chaning daraxtzorlarini barpo etishda bolalarning ochiq havoda bo'lishi, kunning tartibi bilan aniqlanadi. Odatda bolalar kamida havoda qishning 33% ni baxor va kuzda - 48, yozda - 90% o'tkazadi. Bog'chada qo'yidagi maydoncha va inshootlar bo'lishi kerak: o'yin uchun umumiy maydoncha, ayrim bolalar guruhi

uchun maydoncha va ayvoncha, xayvonlar uchun burchak, tamorqa, mevali bog', cho'miladigan hovuz, xo'jalik xovlisi.

Maydonning tahminiy balansi qo'yidagicha: yashil daraxtzorlar - 60%, maydonchalar 20%, alleya va yo'lkalar - 8%, kurilmalar - 12% - 1 ga maydonga 150-180ta daraxt va 2000 - 2500 ta dona butalar ekiladi. Uchastkaning tashqi chegarasiga 2- qator daraxt va butalar ekiladi.

Bolalar maydonchalari bir-birida 2-3 qatorli jonli devor bilan ajralib turadi. Misol uchun 1,2m. Maydonchalar soya bo'lish uchun shox-shabbasi keng va qalin bo'lgan daraxtlar ekiladi. Bog'chaga kiraverishda ota-onalar kutib turadigan joyida fizkultura va umumiy maydonchasiga gullar ekiladi. Hayvonlar va qushlar uchun maydoncha, xo'jalik xovlisi uchastkaning ichkarisiga joylashadi, daraxt va butalar bir-biridan ajralib turadi. Bog'chaning hamma elementlari 1,5m kenglikdagi yo'lkalar bilan bog'langan bo'ladi. Daraxt va butalarning turi keng bo'lishi kerak. Ularning ichidan bargi va mevasi zaharli bo'lganlari olib tashlanadi, va tikanli o'simliklar ekilmaydi (gledichiya, lox) va maydoni ifloslantiriladigan (shumtol, zarang, teraklar) daraxt turlari ekilmaydi.

Bu yerda fitonsid chiqaradigan daraxtlar foydalidir. Masalan: virginiya archasi, qrim qarag'ayi, yaponiya soforasi, ekilishi kerak.

Maktablarni ko'kalamzorlashtirish. Maktabdagi yashil-daraxtzorlar qo'yidagi funksiyalarini bajaradi:

1. Insolyasiyadan, chang shovkindan himoya qilish;
2. Tanaffus paytda dam olishga, sharoit yaratish;
3. Manzarali ko'rinishini yaxshilash.

Maktab uchastkasida qo'yidagilar bo'ladi: maktab imorati, xo'jaliik imoratlari o'quv tajriba qismi (mevali bog', ekinzor, dendrariy, ko'chatzor, issiqxona, astronomik va geografik maydonchalar, zoologiya burchagi.

Maydonning balansi: imoratlar 10-12%, yo'lkalar va maydonchalar - 35%, yashil daraxtzorlar - 55%.

Uchastkaning chegarasiga daraxt, butalar ekiladi. Sport maydonchalari atrofiga daraxtlar, jonli devorlar ekiladi. Dam olish uchun alleylar, gazonlar,

butalar, gullar ekiladi. O'simlik turlari keng bo'lishi kerak. Zaharli va tikanli o'simliklar ekilmaydi.

Klumba, rabatka va parterlarning ishchi chizmasini ishlab chiqish

O'zbekistonda klumba va rabatkalar 2 faslga mo'ljallab barpo etiladi: bahorgi va yozgi. Bahorgi gullar yozning boshlarida yozgi gullar bilan almashtiriladi. Gulzor barpo etish loyihalashtiruvchidan chuqur bilim va yuksak badiiy mahoratni talab etadi. Loyihalashtirish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi: loyiha eskizini chizish, turlarni tanlash, ekish vedomostini tuzish va ishchi chizma chizish. Bulardan tashqari gulzorning xolati, joylashish o'rnini, chegarasi va o'lchamlari ham belgilab olinadi. Gulzor bahorga yoki yozga mo'ljallab loyihalashtirilishi mumkin. Loyiha eskizi yoki tasviri odatda 1:50 yoki 1:100 masshtabda bajariladi. Bir yoki ko'p yillik klumba va rabatkalar uchun loyiha juda murakkab bo'lmasligi kerak. Gilam shaklidagi tasvirlar uchun esa mayda va murakkabroq bo'lishi mumkin. Loyiha eskizi chizilgandan keyin tur tanlashga kirishiladi. Bu bosqichda gullarni birga joylashtirish qonuniyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Gulzorni loyihalashtirishda yana o'simlikning gullash vaqti va balandligini hisobga olish kerak. Klumbalarga faqat ko'p yillik gullar ekilsa ularning faqat 1 yoki 2 turidan foydalaniladi. Agar bir yilliklar yoki gilamsimonlar ekiladigan bo'lsa, ularning ko'p turidan foydalanish mumkin. Assortimentning turli-tuman bo'lishi tasvirga va klumbaning o'lchamiga bog'liq bo'ladi.

Qog'ozda ishlangan tasvirni yerga o'tkazish uchun ishchi chizma chiziladi. Avvalambor tasvirning asosiy chiziqlari belgilab olinadi. Ushbu chizmada alohida detallarning o'lchamlari keltiriladi. Agar tasvir murakkab bo'lsa uni yerga o'tkazish uchun qalin kartondan tayyorlangan trafaretdan foydalaniladi.

Ekish vedomostida o'simlik assortimenti va uning miqdori nav va shakllar bo'yicha ko'rsatiladi. Gullar ekiladigan maydon axlat va chiqindilardan tozalanishi kerak. Bir yillik va ikki yillik o'simliklar uchun tuproqqa 30 sm dan kam bo'lmagan chuqurlikda ishlov beriladi, ko'p yilliklar uchun esa 40-60 sm. Og'ir va zich

tuproqlar uchun yaxshi chirigan go'ng yoki torf 25-30 kg/kv.m. miqdorda solinadi. Yengil qumoq tuproqlar uchun esa 15-20 kg/kv.m.

Bundan tashqari ekish oldidan mineral o'g'it ham solish mumkin. Maydon xaskash yordamida yaxshilab tekislanadi.

Gulzor tasvirini maydonga o'tkazish uchun qoziqlar, belkurak kerak bo'ladi. Dastlab ip yordamida chegaralar belgilanadi, uning markazi va burchaklariga qoziqlar o'rnatiladi. Tasvirning asosiy o'qlari belkurak yoki qoziq yordamida chiziladi, murakkab tasvir esa trafaret yordamida chiziladi (2-3 sm chuqurlikda ariqchalar chiziladi). Agar tasvir chizilgandan keyin gullar shu zahoti ekilmaydigan bo'lsa ariqchalar bo'r yoki g'isht kukuni yordamida belgilab qo'yiladi.

O'simlikni ekishda har bir tur uchun belgilangan oraliq masofalarga amal qilish kerak. Ko'chatlarni bir tekis ekish uchun ip tortiladi va ko'chatlar shaxmat tartibida joylashtiriladi. Ekish so'ngida ko'chatlar sug'oriladi.



Klumba to'g'ri geometrik shaklga ega bo'lib, gullar bilan qoplanadi. Ularning maydoni 2-3 m² dan 50 m² gacha bo'ladi. Klumbalar kompozisiyaning markaziga joylashtiriladi. Fon sifatida gazondan foydalanish mumkin.

Klumba markazi 50-60 sm, chekka qismi esa 8-10 sm gacha ko'tariladi, har xil toshlar bilan bezatilishi mumkin. Klumbalar gulzorli va gilamsimon turlarga

ajratiladi. Gilamsimonlar past bo'yli bargli-manzarali o'simliklardan tashkil topadi. Gulzorli klumbalar doim gullab turuvchi gullardan tashkil topadi. Klumbaning markaziga baland bo'yli va yorqin rangli gullar, pastki qismiga esa past bo'yilari joylashtiriladi.

Rabatkalar – bu to'g'ri burchakli uzun maydonchadir. Eni 0,5 – 3 m bo'ladi. Ekinlar turi va bezatilishiga ko'ra rabotkalar klumbalarga o'xshaydi.



Parterlar park va jamoat binolarining oldida dabdabali ko'rinish hosil qilish uchun barpo etiladi. Parterlar – gul va gazondan yoki faqat

gullar bilan qoplangan holda barpo etilishi mumkin. Parterlarda gullardan tashqari sharsimon va piramidasimon ignabargli va doim yashil yaproq bargli butalar ishlatilishi mumkin. Bezak sifatida suv inshootlari, favvora, turli shakldagi xaykalchalar ishlatilishi mumkin. Parter regulyar va peyzaj usulida ham barpo etilishi mumkin. Ba'zan parterlar aralash holda barpo etiladi. Xududning katta qismi (60-80%) gazon bilan qoplanadi va 15-20% qismiga gul ekiladi.

7.2.ShIFOXONALAR VA SANOAT KORXONALARI MAYDONLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH.

Shifoxonalarni ko'kalamzorlashtirishning maqsadi - ochiq havoda davolanish uchun yaxshi mikroiklim va sanitar - gigiyeniya sharoit yaratish, kasallarning dam olishi, sayr qilishi, davolash korpuslarida insolyasiya rejimini axshilash, ularni chang, shamoldan saqlash, har xil uchastkalarini daraxtlar bilan ajratish, maydonning arxitekturasini shakllantirish, ko'kalamzorlashtirilgan maydon 70%, ya'ni bir kasalga 50m² yashil maydon, to'g'ri kelishi kerak. Yo'llar, alleyalar 17%ni egallaydi. Shifoxonaning chegarasi bo'yicha daraxtlar va butalar ekiladi. Xo'jalik imoratlari va yordamchi inshootlar boshqa maydonlardan qalin daraxtlar bilan chegaralanadi. Hamma yo'llar chetiga qator - qator qilib daraxtlar ekiladi. Davolash korpuslarining oldiga bog'lar barpo etiladi, davolanish muolajasini qabul qilinadigan maydonchalar va sayr qilish uchun yo'lkalar atrofiga daraxtlar ekiladi.

Daraxt turlari har xil bo'lishi kerak, ular ichida ignabarglilari ko'proq bo'ladi. Daraxt va butalar shoh-shabbasi, guli mevasi chiroyli va har xil bo'ladi.

Sanoat korxonalarini ko'kalamzorlashtirish. Sanoat korxonalari maydoni «Zavod bog'i», «Fabrika bog'i» bo'lishi kerak. Yashil daraxtzorlar ishchilar va xizmatchilarni ishlab chiqarishdagi zararli chiqindilar, ob-havoning noqulay sharoitidan (yuqori harorat, havoga namlikning yetishmasligi, shamoldan) himoya qiladi; qisqa vaqt dam olishga, manzarali yaxshilashga yordam beradi.

Zavod va fabrikadagi maydonlarning qo'yidagi uchastkalarida yashil daraxtzorlar barpo etiladi: jamoat va ma'muriy imoratlarning oldida, korxonaga kirish joyida, ishchi va xizmatchilarning dam olish joylarida, zavod ichidagi yo'llarda, omborxona va yordamchi imoratlar oldida, maydonning perimetrida.

Jamoat va ma'muriy imoratlari oldidagi maydonchalarda skverlar barpo etiladi. Kichik parklar, bog'lar, mevali bog'lar dam olish uchun xizmat qiladi.

Transport yo'llari chetiga 1-2 qatorda daraxtlar ekiladi. Yo'lkalarning ikkala tomoniga daraxtlar va butalar ekiladi, gazonlar, gulzorlar barpo etiladi.

Imoratlar orasidagi yashil uchastkalar kichik va katta bo'lishi mumkin.

Kichik uchastkalarda daraxtlar guruh-guruh bo'lib, kichik daraxtzorlar, gazonlar (maysazorlar), gulzor bo'lishi mumkin, kattaroq uchastkalar katta

maydonga o'xshab ko'kalamzorlashtiriladi. O'simlik turlarini tanlashda chang va gazga chidamligi e'tiborga olinadi. Odamlarning psixikasiga ta'sir qilishi xam e'tiborga olinadi. Sexdan chiqaverishdagi maydonda rangi tinch daraxtlar kompozitsiyasi bo'lishi kerak va teskarisi, tinch, bir xildagi ishni bajargandan so'ng odam juda ravshan gulzor, har xil o'simliklar shaklini ko'rishi yaxshidir.

qishloq ishlab chiqarish zonasi zavod va fabrika singari ko'kalamzorlashadi.

Sanoat korxonalari va shaharning turar joyi orasidagi ixota yashil zonalari. Sanoat zonasi bilan aholi yashaydigan zonalar orasida yashil daraxtzorlar barpo etiladi, chunki ular sanoat zonasining zararli ta'siridan himoya qilinadi. Ihota zonasi ko'p qatorli daraxt turlaridan barpo etiladi. Birinchi kattalikdagi shoh-shabbasi katta, qalin daraxt turlari ekiladi. Daraxtlar 1x3 m sxemasida joylashadi. O'rta qismida mevali daraxtlar, ogorodlar, ko'chatzor bo'lishi mumkin. Yashil ixotazorning kengligi - 1000m dan 50m gacha va korxonaning zararliligiga bog'liq. Zararliligiga qarab hamma korxonalar 5 klassga bo'linadi va har bir klassga ma'lum kenglikda daraxtzorlar barpo etiladi.

- I. 1-klass - yirik kimyoviy, metallurgiya, semon (sement) va neftni kayta ishlovchi zavodlar, yirik elektrostansiyalar va boshqalar: ihotazorlarning kengligi 100m.
- II. II klass - kichikroq kimyoviy, metallurgiya, sement korxonalari, ko'mir, sanoati, kichikroq elektrostansiya va boshqalar: ixotazorlarning kengligi 500m.
- III. III klass - mayda kimyo va metallurgiya sanoati korxonalari, teriga, tollarga ishlov beruvchi, to'qima kog'ozlarga singdirish, kichik elektrostansiyalar va boshqalar; kengligi 300 m.
- IV. IV klass - uy quruvchi kombinatlar, qogoz, shifer, g'isht, shisha va farfor ishlab chiqadigan korxonalar, paxta tozalaydigan zavodlar, tamaki fabrikalari va boshqalar; kengligi 100 m.
- V. V klass - parfyumer, payafzal, konserva, non, soat zavodlari, duradgorlik ustaxonasi va boshqalar ixotazorning kengligi 50 m.

qishloqda turar joy va ishlab chiqarish zonalari orasida 20-50m kenglikda yashil polosalar (tasmalar) barpo etiladi.

7.3.QISHLOQDAGI AHOLI YAShAYDIGAN JOYLARNI

KO'KALAMZORLASH TIRISH.

Qishloq aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish shaharnikiga o'xshashdir, ammo uning o'ziga xos xususiyatlari bor, bu qishloq yerining tuzilishi bilan bog'liq.

qishloq joylaridagi aholi yashaydigan punktlarda qo'yidagilar ajratiladi:

1. Selitebli zona - aholi yashaydigan uylar, jamoa va madaniy imoratlar; sanoat zonasi - chorva va parandachilik fermalari, omborlar, ustaxonalar va boshqalar, ular turar joyga nisbatan shamolga teskari bo'lgan tomonda joylashadi.
2. Tashqi zona - mevali bog'lar, ogorodlar, tomarqalar, posyolka atrofidagi yashil ixotazorlar. Turar joy va xo'jalik - ishlab chiqarish imoratlari orasida ihota daraxtzorlari 30-300 m gacha kenglikda bo'lishi kerak.

Seliteb zonasining muhim elementi - tomorqa, unda turar joy (uy), xujara, molxona, tovuqxona, issiqxona, mevali bog', ogorod, maysazor, gulzor, polisadniklar (uy oldidagi kichkina bog'cha, gulzor). Polisadniklarni shtaketnik jonli devor bilan urab olish mumkin. U yerga kichkina daraxtlar ekiladi (ko'pincha mevali daraxtlar), butalar, gullar, uzumlar xam ekiladi. Bir kancha uylar maysazor (gazon) bilan ajratilib turilishi va buta gullar ekilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kompleksining maydoni jonli devor bilan o'raladi. Uchastkaning ichiga daraxtlar, butalar ekiladi, bo'sh joylarga yashil maysalar (gazon) ekiladi. Chorvachilik formalari ayniqsa yaxshilab ko'kalamzorlashtirish kerak. Bu yerda asosiy masal - fermalar chegarasiga ixota daraxtlarini barpo etishdir, va ichidagi har xil imoratlarning orasiga daraxtlar ekiladi. Masalan, chang yigiladigga joy atrofiga qalin qilib 1,5-2m oraliqda daraxtlar ekiladi. Dala shiypolari ham yaxshilab ko'kalamzorlashtiriladi. Bu yerga uzumlar, atirgul va manzarali daraxtlar, xovuz atrofiga majnuntol, terak va boshqa turlar ekiladi (chinor).

Qishloqdagi - aholi punktlarida uy devorini ham yashil o'simlik bilan bezalgani yaxshi bo'ladi, ayvonlar xam shu tarzda yashil o'simliklar bilan bezaladi - uzum, tekoma, lomonos va boshqalar. qishloq markaziga kiraverishdagi arka, xaykallar, vazalar, kiosklar yashil o'simliklar bilan bezaladi.

8.YaShIL DARAXTZORLARNI BARPO ETISHNING AGROTEXNIKASI.

Daraxtlarni barpo etishdan oldin maydon, qurilish chiqindilari, toshlar, tunukalar, stolbalar olib tashlanadi, eski inshootlar fundamentlar va boshqalar olib tashlanadi.

Obyektni agrotexnik tayyorgarlik qilinishiga qo'yidagilar kiradi. Mavjud bo'lgan qimmatli daraxtlarni saqlash (daraxtlar, butalar, o't o'simliklari), ularga parvarish qilish, ko'kalamzorlashtirish ishi uchun tuproq tayyorlanadi. Bu tadbirlar tayyorgarlik kompleksiga kiradi va boshqa muxandislik tayyorgarlik bilan birga bog'lib olib boriladi. Daraxtlarga yaqin joyda (1,5-2m) kommunikasiya ishlari olib borilsa, daraxtlarning ildizlarini himoya qilishga chorak o'riladi.

Tuproqning yuqori qismi kesilib olinsa daraxtlarga ziyon keltirish mumkin. Agar yuqorigi 10-15 sm qalinlikda tuproq qismi kesilib, daraxtlarning ko'p turi shu sharoitga moslashib qoladi. Agar tuproq chuqurroq kesilsa daraxtning ildizlari ochilib ketib qurishi mumkin bo'ladi.

Tabiiy tuproqni daraxt ko'chatlarini ekish uchun tayyorlash uchun, u tuproq xaydaladi, va xamma uchastkaga o'g'it sepiladi. Shuni e'tiborga olish kerakki, daraxtlarning ildizlari ekilgan joyni o'zidan nariroqgacha o'sib boradi. O'g'itlarni solish normasi shu tuproqning turi va sharoitlarga bog'liqdir.

Ildizlari ochiq ko'chatlarni ekish uchun chuqurchalar dumaloq yoki kvadrat shaklida qaziladi. Chuqurchalar qazilgandan so'ng tub qismi 10-12 sm chuqurlikgacha yumshatiladi. Ko'chatlarni yangi qazilgan chuqurlarga, yaxshisi 5-7 kundan so'ng ekiladi. Bu vaqt ichida chuqur shamollaydi va kislorod bilan to'yinadi. Chuqurlarning katta-kichikligi daraxt va butalarning kattaligiga bog'liqdir.

Daraxt va butalarga parvarish berishda asosiy tadbirlardan biri - ularning shox-shabbalariga manzara berish yo'lidir, buning uchun shoxlar qisman kesiladi. Kesishida o' simlikning biologik xususiyatlari e'tiborga olinadi. Shoh-shabbalari to'g'ri kesilsa umumiy o'sish va rivojlanishi yaxshilanadi. Shoh-shabbalariga ma'lum bir shakl beriladi. quruq shohlari, kasal va qalinlashgan novdalari kesiladi.

9.GULZOR VA MAYSAZORLARNI BARPO ETISH AGROTEXNIKASI.

Gulzorni barpo etish uchun qo'yidagi ishlar bajariladi: tuproq tayyorlanadi, gulzorni loyihadan amalga o'tkaziladi; gul ko'chatlari ekiladi; gulzorga parvarish qilinadi.

Gilam - mozaika o'simliklari uchun tuproq 10-15 sm gacha yumshatiladi, yozgi gullar uchun - 30 sm, yirik ko'p yil o'sadiganlar uchun 40 sm georgina va pionlar uchun - 50-60 sm.

Gulzorni baquvvat tuproqda barpo etishda yer xaydaladi, tekislanadi, xaskash bilan tekislanadi. Agar tuproq qismi kam bo'lsa o'simlikli tuproq bilan boyitiladi, yoki yaramaydigan tuproqni boshqa tuproq bilan o'zgartiriladi. Agar tuproqda ozuqa modda oz bo'lsa unga chirindi, torf (2-6 sm qalinlikda) sepiladi va mineral o'g'itlar (1m^2 yerga N30, K-20, R-40 g.) sepiladi. Tuproq yana haydaladi.

Loyihalash jarayonida gulzorning ishchi chizmasiga rasmning konfiguratsiyasi (shakli) chiziladi. Uning kattaligi gullarning nomi ko'rsatiladi. Bo'yi balandrok gullar markazga yaqin joylashtiriladi, bo'yi pastlari esa pereferiyaga yaqin. Gullarni turini tanlashda uning gullash vaqti, rangiga e'tibor beriladi.

O'zbekistonda klumba va rabatkalar ikki faolga mo'ljallab barpo etiladi. Kuzda ikki yilliklar va piyozlilar ekiladi. Ular erta bahorda gullaydigan, ikki yilliklari esa qishda ham gullaydi. Bu o'simliklar bahorda gulli bezak beradi. May oyida ularni o'rnini yozgilar va gilamsimon o'simliklar egallaydi.

Ishchi chizmaga muvofiq ravishda gulzorning shakli va ornamenti (pakshi) amalga o'tkaziladi. Buning uchun ruletka, qoziqlar, shnur, burchak, shablon ishlatiladi.

Murakkabroq bo'lgan suratni amalga o'tkazish uchun kletkalar yoki trafaret qo'llaniladi.

Ko'chatlar yashik, polietilenli xaltacha yoki tuvaklarda keltiriladi.

Ekishdaan oldin ko'chatni asta-sekin sug'oriladi. Ko'chatlar ertalab yoki kechqurun ekiladi, yaxshisi bulutli kunda.

Ko'chatlar orasidagi masofa 15-20sm. Ko'chatlar ekilgandan so'ng 2 hafta o'tib 1m^2 hisobida ammiakli selitra 15g, superfosfat - 30g, xlorli kaliy - 20g. Ko'p yilliklari 3 marta o'g'itlanadi: bahorda - ammiakli selitra bilan, iyulda - ammiakli selitra, superfosfat va kaliyli xlor bilan, kuniga 1-2 marta sug'oriladi, begona o'tlar olinadi (faolda 5-6 marta), tuproq yumshatiladi.

Gilamsimon va bordyurli o'simliklar 6-10 marta kesiladi.

Maysazorlar barpo etish uchun urug'i sepiladi, chim ekiladi, vegetativ usul bilan ekiladi.

Urug'larni sepish. Maysazorlar asosan urug'i sepilib barpo etiladi (raygras, betaga (ovsyanisa), oddiy maysazorlar uchun aralash urug'lar sepiladi (betaga- 30%, ko'ngirbosh (myatlik) - 30, simbirik (polovisa belaya) - 10, raygras - 30%. Urug'larni sepish normasi: raygras - 80-100 kg/ga, ovsyanisa - 100-120, myatlik 45-55, polovisa 20-25 kg/ga.

Maysa o'tlar urug'lari 15 fevraldan 15 martgacha va kuzda 15.X.- 5.XI gacha sepiladi. Sepish chuqurliga 0,5-3 sm. Urug'lari sepilgandan so'ng tuproqning ustki kismi tekislanadi, suv sepiladi. Raygrasning urug'lari 10 kundan so'ng, myatlikniki 15-17, ovsyanisaniki - 12-14 kundan so'ng unib chiqadi.

Chimlash, chim bosish - chimlash usuli bilan maysazorlar qiyaliklarda kamroq - asosan tekis yerlarda ko'llaniladi. Chim 30x15; 30x20; 60-60 x 20-30 sm kattalikda va 6-8 sm qalinlikda kesiladi, so'ng ular kerakli maysa keltirib darrov o'z joyiga ekiladi. Chim bosish yalpi, tasma va kataksimon shaklda olib borilishi mumkin.

Veggetativ usul - ildizlari kesiladi, yoki ustki novdalari 3-5 sm uzunlikda kesiladi, uchastkaning ustiga sepiladi, chirindi bilan yopiladi (2-3 sm), (chirindili tuproq bilan), tekislanadi va suv sepiladi.

Gidrosepish. Suv sepadigan mashinaga urug'lar, o'g'it, suv, bitum emulsiyasi, lateks emulsiyani joylashtiriladi va kerakli joyga sepiladi. Aralash materiallarning sepilish miqdori - 10 m² yerga; kichik - 400, bitum emulsiyasi 1, notekis - 40, suv - 4,5g, 100m² maydonga superfosfat - 3 g, ammiakli selitra - 6, xlorli kaliy - 2 g.

Maysazorlarda parvarish ishlarini olib borish. Bunda asosiy ishlar qo'yidagicha sug'orish, o'rish begona o'tlarni olish, o'g'itlash, ta'mirlash, kasal va zararkunandalardan himoya qilish. Yomg'irlatib sug'oriladi.

Muntazam ravishda maysazorning utski qismi kesilib turiladi. Buning uchun maysani kesadigan elektrli, benzinli motorli o'roqlar (gazonokosilka) ishlatiladi. Xar 7-10 kunda 3-4 sm balandlikkacha kesiladi. Kesilgan o't olib tashlanadi.

10.KO'KALAMZORLASH TIRISHNING IQTISODI VA TASHKIL QILISH.

Yashil xo'jalikda boshlangich xo'jalik bo'lib qo'yidagilar ishtiroq etiladi:

1. Ko'chatzor.
2. Gulzor xo'jaligi.
3. Urug'li xo'jalik.
4. Maxsus qurilish bosh qarmasi (yashil qurilish).
5. Yashil xo'jalikning idorasi.

6. Manzarali bog' dorchilikning kombinatlari (daraxt, buta, gullarni yetishtirish)

I.Rejalash

Shaharning perspektiv rejasi qo'yidagi tartibda ishlab chiqiladi:

1. Tabiiy sharoitlar yoziladi.
2. Shaharning hozirgi ahvoli.
3. Yashil daraxtzorlarning soni.
4. Yashil daraxtzorlarning normasi.
5. Ko'kalamzorlashtirishning turi to'g'risida ko'rsatmalar.
6. Loyihalanadigan daraxtzorlarning dendrologik tarkibi, agrotexnikasi, mexanizasiya.
7. Ko'kalamzorlashtirish ishlarini xajmini, navbatini narhini aniqlash.
8. Ko'chatlarni turlari bo'yicha va yillar bo'yicha extiyojini aniqlash.
9. Ko'chatzor va gul xo'jaligida bo'lgan extiyojni hisobi.
10. Tuproqni tayyorlash uchun tadbirlarni ishlab chiqarish.
11. O'simliklarni parvarish qilish va yashil daraxtzorlarni saqlashni ishlab chiqarish.

Ishlab chiqarish ishlarni tashkil qilish. Texpromfinplanda qo'yidagilar ko'rsatiladi:

1. Agrotexnika masalalari;
2. Daraxtzorlarni ko'rib qolishdan saqlash tadbirlari;
3. Ko'chatlar va gullarning sifatini oshirish tadbirlari;
4. Mexanizmlardan to'laroq foydalanish, xomashyo va materiallarni iqtisod qilish.

Ko'kalamzorlashtirish ishlarining tannarxini kamaytirish qo'yidagicha yo'l bilan borishi mumkin:

1. Tuproqni tayyorlash ishini arzonlashtirish.
2. Loyihada ortiqcha tadbirlar qilinadi, ya'ni:
 - a) gilamli to'g'ri tuproqda ekish;
 - b) daraxt va butalarning sonini kamaytirish, maysazorlarning maydonini ko'paytirish;
 - v) jonli devorlarni kamaytirish;
 - g) cho'yanli, marmarli, granitli chegaralarning o'rniga temirbetonli devor ishlatish;

- d) yashil polosalar bo'yicha ekish;
- ye) katta yoshdagi ko'chatlar o'rniga kichikroq yoshdagilari ekiladi;
- j) yo'lkalarni kamaytirish;
- z) chuqur va transheyalarning katta-kichikligini kamaytirish.

1. Ko'chatlarni narxinni kamaytirish.
2. Materiallarning narxini kamaytirish, transport xarajatlarini kamaytirish.
3. Ish unumdorligini oshirish.
4. Mashinalardan foydalanishini yaxshilash.
5. Qo'shimcha chiqishlarni kamaytirish.

Ko'kalamzorlashtirish - qo'rilish ishlarini ikki usul bilan olib borish mumkin:

1. Yashil obyektning xamma qurilishi davrini ketma-ket bajarish, (uchastkani tayyorlashdan va urna, skameykalarni o'rnatilishigacha);
2. qurilish elementlarini parallel bajarish (masalan, bir vaqtni o'zida daraxtlarni ekish va maysazorni barpo etish yoki yo'lkalarni va maydonchalarni tayyorlash).

Ishlarni bajarish uchun qo'yidagicha ketma-ketlik qabul qilinishi mumkin:

1. Loyihalanayotgan parkning chegarasini belgilash;
2. Mavjud daraxtlarga parvarish berish;
3. Vaqtinchalik inshootlarni qurish;
4. Loyiha bo'yicha uchastkani bo'lish;
5. Har hil inshootlar poydevori uchun katlavanlar qazish;
6. Maydonni tozalash;
7. Yer osti xo'jaligi tarmog'ini o'tkazish;
8. Chiroqlar (fanarlar)ni o'rnatish;
9. Har hil uchastkalarda tuproqni kesish ;
10. Aholi punktlaridan ortiqcha tuproqni chiqarib tashlash;
11. Yo'llar va maydonchalar uchun asos tayyorlash;
12. Ko'chat ekish va urug'sepish uchun tuproqni tayyorlash;
13. Yo'lkalarga va maydonlarga qoplama o'rnatish;
14. Pavilonlarni qo'rish va montaj qilish;

15. Daraxtlar butalar, gullarni ekish, maysazor uchun urug'lar sepish;
16. Vaqtinchalik inshootlarni buzish va ortiqchasini olib chiqish;
17. Kichik arxitektura shakllarini o'rnatish.

Hisob uchun texnologik kartalardan foydalaniladi.

**11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni
2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga
mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga
bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib
chiqadigan asosiy vazifalar**

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyasiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investisiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.

O'tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o'sish hajmi 14,4 foizni tashkil etdi va yalpi sanoat hajmida ularning ulushi 35,5 foizga yetdi. Bunday tovarlarning raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham tobora ortib bormoqda.

2013 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000 yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 foizga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 foizga, chorvachilik – 7,4 foizga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000 yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda faqatgina 16,8 foizni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda.

Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda. Xususan, g'alla

yetishtirish 2000 yilga nisbatan 2 barobar, kartoshka – 3,1 marta, sabzavot – 3,2 barobar, uzum – 2 marta, go'sht va sut – 2,1 karra, tuxum – 3,4 barobar oshdi.

O'tgan 2013 yilda mirishkor dehqon va fermerlarimizning fidokorona mehnati bilan misli ko'rilmagan natijalarga erishildi – 7 million 800 ming tonna g'alla, 8 million 400 ming tonna sabzavot yetishtirildi. Mamlakatimizning ulkan xirmoniga 3 million 360 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetkazib berildi.

Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda.

2008 yildan boshlab mamlakatimizda qariyb 1 million 500 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi, yer osti suvlari yuqori bo'lgan maydonlar 415 ming gektarga yoki salkam 10 foizga qisqardi, kuchli va o'rtacha sho'rlangan maydonlar 113 ming gektarga kamaydi.

Yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda.

Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu ish o'rinlarining 60,3 foizdan ortig'i qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni

rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o'zni tashkil etildi.

O'tgan yili biz uchun eng ustuvor vazifa bo'lmish kasb-hunar kollejlarning 500 ming nafardan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi va aytish joizki, buning ahamiyatini baholashning o'zi qiyin. O'z xususiy ishini ochib, biznes bilan shug'ullanishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga 140 milliard so'mdan ziyod imtiyozli mikrokreditlar ajratildi.

2013 yilda qishloq joylardagi 353 ta massivda umumiy maydoni 1 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 10 mingta shinam uy-joylar barpo etildi, bu ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 17 foizga ko'pdir. Ushbu maqsadlar uchun qariyb 650 million dollar qiymatidagi mablag' yo'naltirildi. Buning 106 million dollari Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'laridir.

Qishloqlarimizni obod qilish, qishloq aholisining turar-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha bizning bunday tajribamiz xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otmoqda.

2013 yilda ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, lisey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi.

O'tgan yili 28 ta yangi kasb-hunar kolleji qurildi, 381 ta umumta'lim maktabi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi 45 ta obyekt, 131 ta kasb-hunar kolleji va liseylar rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Shuningdek, 55 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 112 ta bolalar sporti obyekti va 4 ta suzish havzasi foydalanishga topshirilib, ularning barchasi zarur uskuna va inventarlar bilan jihozlandi.

2013 yilda xalqimizning real daromadlari 16 foizga oshdi, o'rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 foizga ko'paydi.

2013 yilda 2000 yilga nisbatan aholimizning iste'mol xarajatlari 9,5 barobar oshganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi.

So'nggi yillarda jon boshiga to'g'ri keladigan eng muhim oziq-ovqat tovarlari bo'yicha iste'mol hajmi muttasil o'sib bormoqda, ayni vaqtda nooziq-ovqat

mahsulotlarni xarid qilish va xizmatlar uchun to'lanadigan sarf-xarajatlar miqdori ham sezilarli ravishda ko'paymoqda. Misol uchun, mustaqillik yillarida go'sht iste'moli – 1,4 marta, sut – 1,3 barobar, sabzavot va poliz mahsulotlari – 2,6 marta, kartoshka – 2 barobar, mevalar iste'moli – 6,4 karra oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan kelib chiqadigan asosiy vazifalar qo'yidagilardir:

- qishloq xo'jaligini intensiv asosda rivojlantirish;
- yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash;
- seleksiya ishlarini chuqurlashtirish;
- yuksak samarali zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish;
- suvdan oqilona foydalanish;
- dehqon va fermerlarning dardi bilan yashash;
- yerga mehr, uning unumdorligini oshirish va birinchi navbatda dehqon va fermerga doimiy e'tibor, ularning manfaati haqida g'amxo'rlik qilish.

–2013-2017 yillarda qabul qilingan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar davlat dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarning Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari, barcha manfaatdor idoralar, Fermerlar kengashi va avvalambor fermer so'zsiz bajarilishini ta'minlash;

– O'zbekistonda pensiyalarning o'rtacha miqdorini o'rtacha ish haqiga nisbatan 41 foizga yetkazish;

– iqtisodiyotimizning 2014 yilga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari avvalo bu sohaning yuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirish;

–yalpi ichki mahsulot hajmini 8,1 foizga, sanoatni 8,3 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, chakana savdo aylanmasini 13,9 foizga ko'paytirish, bozor xizmatlarini 16,2 foizga oshirgan holda, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 foizga yetkazish;

– yuridik shaxslar uchun foyda solig'i stavkasini 9 foizdan 8 foizga, jismoniy shaxslar uchun eng kam soliq hajmini 8 foizdan 7,5 foizga tushirish;

–asosiy kapitalga kiritiladigan investisiyalar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 2013 yilgi 23 foiz darajasida saqlab qolish;

–barcha investisiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish obyektlarini barpo etishga, kapital qo'yilmalarning qariyb 40 foizi mashina va uskunalar sotib olishga yo'naltirish;

–ular qatorida «Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ishlab chiqarish quvvatini 200 ming tonnadan 600 ming tonnaga oshirish» bo'yicha va boshqa muhim loyihalarni nihoyasiga yetkazish mo'ljallanmoqda.

12.Hayot faoliyati xavfsizligi

Texnika xavfsizligi deganda, kishilarga xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining ta'siri qisman yoki butunlay istisno qilingan holatga aytiladi.

Mehnat muhofazasining asosiy vazifalaridan biri ishlovchilarning xavfsiz mehnat sharoiti bilan ta'sinlashdir. Zamonaviy qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi muntazam yangi texnikalar, mikrobiologik va kimyoviy moddalar yetkazib berishni, chorva mollarini katta komplekslarga va ayda fermerlik xo'jaliklariga birlashtirishni, ish jarayonlarining yiriklashuvini, dehqonchilikdagi ishlarni brigada va oilaviy pudrat asosida bajarishni, ayrim mehnat turlarini hamda vositalarini o'zgartirib borishni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish sharoitida insonga jarohta yetkazilishi mumkin bo'lgan xavflar asosan fizikaviy, kimyoviy va biologik xavflar turlariga bo'linadi.

Fizikaviy xavfli ishlab chiqarish omillari – bu harakatdagi mashinalar, uskunalarning harakatdagi elementlarining to'silmaganligi, qo'zg'atiluvchi ustki qismining yuqori yoki past haroratda bo'lishi, elektr tarmoqlarining xavfli kuchlanishi, yuqori bosimdagi havo va gazning portlagandagi energiyasini va boshqalar.

Kimyoviy xavfli ishlab chiqarish omillari – odam organizmiga o'yuvchi, zaharli va qichitadigan moddalarning ta'sir qilishi va ichki organlari yaralanishi bilan ifodalanadi. Muayyan xavfli ishlab chiqarish omillarning qilinganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Biologik xavfli ishlab chiqarish omillari-odam organizmiga turli yuqumli kasalliklarni bakteriyalari va viruslari yuqishi natijasida sog'lig'i va ish qobiliyatini yo'qolishi bilan ifodalanadi. Muayyan xavfli ishlab chiqarish omillarning kelib chiqishi texnologik jarayon, ishlab chiqarishdagi muhit va himoya vositalari hamda kishilarni o'z vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tishlarini tashkil qilinganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ishlab chiqarishda vujudga kelayotgan va kelishi mumkin bo'lgan jarohat, shikastlanish va zaxarlanishlarni oldini olish tadbirlari ancha murakkab masala bo'lib, buni hal qilishda muxandis-texnik, tibbiy-gigiyenik, ekologik va boshqa sohadagi mutaxassislar e'tiborini jalb qilinishi kerak bo'lgan muammodir.

Ishlab chiqarish jarayonida kishilarni hayoti va salomatligiga ta'sir etadigan xavfli ishlab chiqarish omillarni ba'zan yoki davriy ravishda sodir bo'lish maydoni xavfli doira deb ataladi. Xavfli doira mashina va mexanizmning harakatlanuvchi, aylanuvchi qismlarida, yuk yaqinida, ko'tarib tushiradigan transport vositalarida qo'zg'atiladigan yuk atrofida paydo bo'lishi mumkin. Ishlovchilarning kiyim va sochlarini uskunalarning harakatdagi qismlarini tortib ketish imkoniyatiga ega xavfli doira xavf-xatar tug'diradi. Juda ko'p jarohatlar ishchilardagi osilib yotgan kiyimlarni qishloq xo'jaligi mashinalarining to'silmagan maxanizmi o'rab ketishi tufayli sodir bo'ladi.

Har qanday ishlab chiqarish sohasida yetkazib beriladigan barcha turdagi mashina, agregat, mexanizm va uskunalar baxtsiz hodisalarning oldini oladigan

- to'siq;
- tormoz;
- blokirovka;
- saqlash uskunalari;
- signalizasiya;
- shaxsiy himoyalalanish vositalari.

Siljuvchan to'siqlarni olib yoki chekkaga surib qo'yish mumkin. Vaqtinchalik to'siqlar korxona, sex, xudud xududdagi ishlarni bajarish vaqtida ishlatiladi. Ularga misol sifatida muxofaza ekranlari, metall uqitlar, parda va boshqalarni keltirish mumkin. Sexda payvandlash ishlarini bajarishda atrofdagilarni elektr yoyning ravshan sho'lasini ta'siridan muhofaza qilishda, qurilish maydonchalari, xandalaklarni to'sishda, boshqa yer ishlarini bajarishda vaqtinchalik to'siqlar ishlatiladi.

Mashina va uskunalarning xarakatlanayotgan (aylanayotgan) elementlarini tez va asta-sekin to'xtatish uchun tormozlash uskunalari ishlatiladi. Bundan tashqari, ular mashinalarni qiyaliklarda tutib turish, ko'tarilgan yukning o'z-o'zidan pastga tushib ketishidan saqlash maqsadlarida ham ishlatiladi.

64

quruq beton yo'lda tarktorni tormoz yo'li 6 m dan ko'p bo'lmasligi lozim. To'xtatayu qo'yish tormozningsamaradorligi mashinalarning 36% (20⁰) ko'tarilish yoki tushishda ishonchli tutib turishiga qarab aniqlanadi.

Mexanizmlar yoki ularning qismlarini muayyan holatda ishonchli mahkamlashni ta'minlash uchun blokirovka vositalaridan keng foydalanadilar.

Mashina va uskunalar hamda texnologik komplekslarda mavjud talablardan kelib chiqqan holda xalokat holatdagi ish rejimiga mo'ljallangan himoya uskunalri bo'lmasa, bunday mashina ishga yaroqli emas deb hisoblanadi. Himoya uskunalarining ishlashi mashina va uskunalar hamda texnologik komplekslarda nazorat qilish omillari (zo'riqish, bosim, harorat) ruxsat etiladigan chegaradan oshib yoki tushib ketganda avtomatik to'xtatadi. Barcha himoya qurilmalari to'rt guruhga bo'linadi:

- Mexanik zo'riqishlardan saqlovchilar (turli xil muftalar, kesilib ketadigan boltlar, shtiftlar);
- Mashina qismlarining belgilangan gabaritdan chiqishini saqlovchilar (yuk ko'tarish mexanizmlarining chetka uzib-ulagichlari, ular mashinaning ish organi yoki mexanizmning siljishini cheklab turdai);
- Bosim yoki xaroratning ko'tarilib ketishidan saqlovchilar (konstruksiya turlicha bo'lgan klapanlar, ular idishdagi bosim ortib ketganida, traktorning gidrotizimida moy, avtomobil va tarktorning tormozlash tizimida havo bug'ing xarorati, qozon uskunasi suv ko'payib ketganda ochiladi);
- Elektr tok kuchining ruxsat etiladigan chegaradan ortib ketishidan saqlovchilar (elektr tarmoqlaridagi eruvchan saqlagichlar, avtomatik uzib-ulagichlar, buzilgan elektr uskuna, asbob va boshqalarni tarmoqdan uzib qo'yadi);

Zamonaviy barcha turdagi ishlab chiqarish uskuna va texnik vositalarida sodir bo'lgan yo sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavflardan himoyalash uchun signalizasiyadan keng foydalaniladi. Vazifasiga qarab signalizasiyalar:

- Ogohlantiruvchi (mehnat xavfsizligiga rioya qilish to'g'risida ogohlantiradi, transport vositalarining harakatini boshqarish);

- Halokat haqida (xavfli ish tartibi sodir bo'lganligi to'g'risida) xabar beruvchi;
- Nazoratlovchi (ishlab chiqarish jarayonidagi harorat, bosim, suyuqlik miqdori va boshqalarni nazorat etish);
- Gaplashishga oid (bir mexanizm yoki agregatga xizmat ko'rsatuvchi, bir guruh odamlar bilan operativ, ovozli va ko'rish signallarini shartli bog'lanishlaridir);

Tuzilishi jihatdan yorug'lik beruvchi, maxsus ovoz beruvchi va turli rangli va belgili signalizasiyalardan keng foydalanadilar. Yorug'lik signalizasiyalari transport vositalarida xavfsizlik vositasi sifatida keng foydalaniladi.

GOST 12.4.026-76 quyidagi signal ranglarini va vazifalarini belgilaydi;

Qizil – «mann etish», «stop», yaqqol xavflilik;

Sariq «diqqat», mumkin bo'lgan xavf to'g'risida ogohlantirish»;

Yashil – «xavfsiz», «ruxsat etiladi», «yo'l ochiq»;

Ko'k – «informasiya».

Avtomatik ulash qurilmalari traktorni tirkama yoki osma mashinalar bilan avtomatik ulashni ta'minlab beradi. Avtomatik ulashlarni keng miqyosda ishlab chiqarishga tatbiq etilishi mashinalarni agregatlarga sodir bo'ladigan jarohatlanishlarni butunlay yo'qotadi.

Bundan tashqari mehnat xavfsizligini ta'minlash maqsadida turli xil belgilardan ham keng foydalanadilar. GOST 12.4.026-76 da asosan mehnat xavfsizligini ta'minlovchi belgilar to'rt guruhga, ya'ni taqiqlovchi, ogohlantiruvchi, ruxsat etuvchi va ko'rsatuvchi belgilar turiga bo'linadi.

Taqiqlovchi belgilar – qanday harakatni chegaralaydi va qizil rangda bo'lib, aylana shaklida bo'ladi (cho'milishni, ochiq olovdan foydalanishni, transport yoki yo'lovchi harakatini, harakat tezligini taqiqlaydi).

Ogohlantiruvchi belgilar – oldinda xavf borligi to'g'risida (portlash, o't olish, elektr tokidan jarohatlanish, qandaydir buyumlarning tushib ketishini) xabar beradir va uchburchak shaklida bo'lib, sariq rangda bo'yaladi.

Ruxsat beruvchi belgilar – ko'k rangli to'rtburchak shaklida bo'ladi va belgiga ko'rsatgan shakl asosida ma'lum bir ish jarayonini xavfsiz bajarish uchun ruxsat etiladi.

Ko'rsatuvchi belgilar – ko'k rangli to'rtburchak shaklida bo'lib, asosan informasion xarakterga ega belgidir. Ko'rsatuvchi belgilar korxonadagi har xil obyektlarni joylashgan joyini ko'rsatadi.

Masofadan turib kuzatish va boshqarish shu sharoitlarda olib boriladiki, operatorni ish doirasida xavfsizlik nuqtai nazardan yoki texnologik sabablarga ko'ra mumkinmasligi, shuningdek ishlab chiqarishni kompleks mexanizasiyalash va avtomatlashtirish sharoitida samarasizdir. Masofadan kuzatish maxsus datchilar, signalizatorlar, teeyekranlar va nazorat o'lchov asboblari orqali olib boriladi.

Masofadan turib boshqarish esa elektr, pnevmatik, mexanik, gidravlik va boshqa uzatmalar orqali olib boriladi. Mikrojarayonlar avtomatik boshqarish tizimlari, elektron-xisoblash mashinalarida bajariladi.

Ishlab chiqarishad texnologik jarayonlarni bajarishda, tashkil qilishda va loyihalashda GOST 12.3.502-75 va TS 46.0.141-83 quyidagilarni inobatga olish shart deb belgilaydi.

- Ishlarni xavfli va zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dastlabki materiallar, yarim maxsulotlar va chiqindi ishlab chiqarilishi bilan bevosita aloqasini yo'qotadi;
- Xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud joylarni kompleks avtomatlashtirish hamda mexanizasiyalash;
- Texnologik jarayonlarda nazorat va boshqarish tizimini o'rnatish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarish chiqindilarini o'z vaqtida zararsizlantirishda va chiqarib tashlash, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini kishilar organizm iva atrof muhitga ta'sirini kamaytirishga olib keladi. Materiallarni, tayyor maxsulotni va ishlab chiqarish chiqindilarini saqlaganda, xavfli ishlab chiqarish omillarining sodir bo'lishidan himoyalaniishi kerak.

Uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini, uskunalarini to'g'ri joylashtirish va ish joylarini oqilona tashkil qilish bilangina ta'minlash mumkin.

Ishlab chiqarishda ishlashga ruxsat etilgan shaxslarning jismoniy imkoniyatlarini va mehnat xususiyatlarini xisobga olish shart. Xizmat qiluvchi xodimlar bajarayotgan ishlariga muvofiq mehnat xavfsizligi bo'yicha kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi lozim.

Yuk ko'tarish-tushirish mashina va mexanizmlarini, tashish vositalarini ishlatganda mehnat xavfsizligi. Qishloq xo'jalik korxonalrida yuklarni tashish, yuqoriga ko'atrish uchun ko'pgina mashina hamda mexanizmlar ishlatiladi. Tashuvchi mexanizmlar asosan gorizonttal yo'nalishda xarakatlanadilar.

Ular uzluksiz ishlaydigan: tasmali transportyor, havo yordamida, roliqlar, tarnovlar yordamida ishlaydigan va boshqalar turlardan iborat bo'ladi. Davriy ravishda ishlaydiganlarga esa avtomobillar, avto va elektyuklagichlar kiradi. Yuk ko'taruvchi uskunalariga ko'prik kranlar, avtomobillarga o'rnatiladigan aylanma kranlar, telfer, o'zi yurar aravacha o'rnatilgan tal va boshqalar kiradi.

Kranlarda ishlashda yuk va kranning xarakatsiz qismi yoki boshqa obyekt (devor, kolonna) orasida siqilib qolishi, ilmoq to'g'ri ilinmaganligi sababli yukning tushib ketishi, elektr uzatish liniyalari yaqinida ishlayotganda elektr toki urishi, ishlayotganlar malakasining yetishmasligi va boshqa sabablar tufayli baxtsiz xodisalar sodir bo'lishi mumkin. Yuq ko'tarish uskunasi 18 yoshga to'lganlarga ishlashi ruxsat etiladi, bundan tashqari ular tibbiy ko'rikdan o'tgan, maxsus ta'lim olgan va tegishli guvohnomasi bor bo'lishi kerak.

Xo'jalikning ta'mirlash ustaxonalarida sozlash ishlarini bajarishda kran-to'sinni (kran - balka) ishchilarning o'zlari boshqaradilar, shu sababli ular bilan ko'tarish mexanizmlari bilan xavfsiz ishlash qoidalari bo'yicha vaqti-vaqti bilan dars o'tkazib turish zarur.

Barcha yuk ko'tarish vositalari, qo'l bilan ishga tushiriladigan va 1 t gacha yuk ko'taradigan koanlardan tashqari «Sanoatkontekstnazorat» organlari ro'yhatidan o'tgan bo'lishlari kerak.

Mashinalarni bevosita yuk ko'taruvchi moslamalari (stropa, sim arqon, zanjir, qisqich, ilgak) foydalanishga topshirilishidan oldin har galgi tozalanishdan so'ng sinovdan o'tkazilishi kerak. Sinov, me'yordagi yuk ko'tarish qobiliyatidan 25% ko'p xolda bajariladi. Yuk ko'taradigan po'lat va ilmoqli simarqonlar arqonning bir o'ramdagi uzilgan tolalar miqdoriga qarab yaroqli yoki yaroqsizligi aniqlanadi. Bita arqonda uzilgan tolalar 10% bo'lsa, simarqon yaroqsiz deb xisoblanadi.

Yuklar ko'pincha qoplarda, savatlarda, karton qutilarga, bochkalarda ortib tashiladi. Ortish usuli tashiladigan yukka va yuk ko'taradigan mashinalar yoki boshqa vositalarning bor-yo'qligiga bog'liqdir. Qishloq xo'jaligidagi jarohatlarning 35% ga yaqini transportda ish bajarganda sodir bo'ladi. Yuklarni qo'lda ortish va tushirish faqat muvaqqat maydonchalarda ruxsat etiladi. Bunday holda erkaklar qo'li bilan 50 kg, ayollar esa ko'pi bilan 9 kg, 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar ko'pi bilan 13 kg, o'smir qizlar ko'pi bilan 7 kg yuk ko'tarishlari ruxsat etiladi.

Odamlarni transport vositalarida tashishda xavfsizlik talablari. Xaydovchi yo'lga chiqishdan oldin yo'lovchalarga mashinaga chiqish va mashinadan tushish qoidalari hamda transport xarakati vaqtida o'zlarini qanday tutishlari to'g'risida yo'l-yo'riq berishi lozim.

Uch yil uzluksiz malakaga ega bo'lgan xaydovchigina avtomobil kuzovida odamlarni tashishga ruxsat etiladi. Kuzovdagi yo'lovchilardan biri javobgar qilib tayinlanadi va uning ism-sharifi yo'l varaqasiga yoziladi. Transport yurirb ketayotgan vaqtga yo'lovchilarga bortlarda o'tirish mann etiladi. Yo'lovchilar bo'lgan avtomobillarning tezligi soatiga 60 km dan oshmasligi lozim.

Yo'lovchilarni tashish uchyaun mo'ljallangan yuk avtomobilining kuzovini bortlarining yuqori qismidan 150 mm pastga o'rnatilgan o'rindiqlar bilan jihozlash zarur. Orqadagi va yonlardagi o'rindiqlar mustahkam suyanchiqli bo'lmog'i lozim. Bunday avtomobillarda dvigatel gaz chiqish quvurlari kuzovdan tashqarida bo'lishi kerak.

Avtosisternalarda va o'zag'dargichlarda youi bortsiz platformada , yuk avtomobillarida yuklarni kuzatib boruvchi kishilar xaydovchining kabinasida bo'lishi shart. Yarim tirkama va tirkamalarda, kuzov bortlari bilan barobar yoki

baland joylashgan va bo'yicha uzun bo'lgan yuklar ustida odamlarni olib ketish qat'iyannan man etiladi.

Yonilg'i idishlarini yoki gaz ballonlarini tashishda kuzovda odam bo'lmasligi kerak. Qishda yo'llar berkilib qoladigan sharoitda istisno tariqasida zanjirli tarkib agregatlaridagi chanalarda odam tashishga yo'l qo'yiladi.

XULOSALAR

Bugungi kunda mamlakatimizda aholi turar joylarini ko'kalamzorlashtirish ishlarini va agrotexnikasini to'g'ri amalga oshirish eng asosiy dolzarb ishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shaxar, bulvarlar, maktab va bolalar bog'chalari hududini ko'kalamzorlashtirishni o'rganish asosida quyidagi xulosa va takliflarni kiritamiz.

Aholi turar joylarini ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirishda mahalliy sharoitga mos o'ta manzarali daraxt, buta, gullar ko'chatlari va gazon turlarini tanlash zarur ;

Ko'kalamzor xiyobon barpo etish jarayonida ko'kalamzorlashtirish uslublari, buta va gul ko'chatlari va maysazorlarni o'zaro uyg'unlashtirish (kompozitsiya yaratish);

Shaxar, bulvarlar, maktab va bolalar bog'chalari hududida, ziyorat-qadamjolarida bo'lganligi bois manzarali daraxt, butalar, gullar va maysazorlarni agrotexnikasini o'z vaqtida va sifatli o'tkazib turilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" T.: 2010.
2. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi. O'zbekistonda uni oldini olish yo'llari va choralari" T.: 2009.
3. Karimov I.A. "Tarixi boy, buguni go'zal, kelajagi buyuk shahar" T.: 2009.
4. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" Toshkent "O'zbekiston" 1997 y. O'zbekiston Respublikasining o'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlari. Toshkent 1999.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7-sentyabrdagi 186-sonli qarori.
6. Abduraxmonov L.A., Slavkina T.I. "Ozelenitelnyy assortiment i uxod za gorodskimi nasajdeniyami Uzbekistana" T.:1980, 22-23 bet.
7. Ablayev S.M., Yuldashev Ya.X. //Madaniy o'rmonlar T.:2008.
8. Arifxanov K.T. "Vidy roda *Robinia L.* introdusirovannyye botanicheskimi sadom" T.:1970, S 103

9. Bogovaya I.O., Teodoronskiy “Ozeleneniye naselyonnykh mest” M.:1990, 39-43 betlar.
10. Burigin V.A., Jongurazov F.X. va boshqalar “Botanika va o’simliklar fiziologiyasi asoslari” T.:1972, S 103-106.
11. Viliseva V.V., Zapryagova V.I. va boshqalar “Derevyia i kustarniki” M.: 1986, S 133-136.
12. Guzenko T.G., Ganja M.T., Kotova I.Yu., Sharapova E.P. “Dekorativnoye sadovodstvo i sadovo-parvovoye stroitelstvo” M.: 1985,S 114-119.
13. Dosaxmetov A.O. “Aholi turar joylarini ko’kalamzorlashtirish” ma’ruza matnlari T.: 2000 14-15 betlar.
14. Yelisseyev I.P., Kubanova S.L. “Derevyia i kustarniki dlya ozeleneniya gorodov i syol” M.:1979, 110-121 betlar
15. Yeroxina V.I.,Jerebsov G.P. Volfrub T.I. Ozeleneniye naselyonnykh mest M.: 1987 S 86-93.
16. Yoziyev L.X. Introduksiya bolotnogo kiparisa i metasekvoyi v Uzbekitane T.:2002 S 47.
17. Kuzmichev V.I., Pechenisin V.P. “Ozeleneniye gorodov i syol” T.:1979, S 96-104.
18. Nexujenko N.A. Основы ландшафтного проектирования i ландшафтного архитектуры S. Peterburg.:2004 S 88.
19. Ozolin G.P., Karpov V.A. va boshqalar “Derevyia i kustarinki dlya zaщitnogo leso razvedeniya” M.1974 S 14-16.
20. Pechenisin V.P., Agzamov A.A. Kultura ozeleneniya T.:2005 S 59-64.
21. Polonskaya L.S., Fimkina M.V. “Metodika sistemnykh issledavaniy lesoagrarnykh landshaftov” M.: 1990 S 117-143.
22. Slavkina T.I., Podolskaya O.I. “Dekorativnoye sadovodstvo” T.:1987, S 38-97.
23. Teodoronskiy V.S., Белый A.I. Sadovo-parkovoye stroitelstvo i xozyaystvo M.: 1989 S 162-167.
24. Usmonov A.U. “Denrologiya” T.:1974, 145-148 betlar.

25. Usmonov A.U., Kostekova G.S. Derevyia i kustarniki Sredney Azii T.:1973 S 112-115.
26. Xessayon D.G. “Vsyo o krasivosvetuııix kustarnikax” M.: “Kladez Buks”, 2003 S 166-169.
27. Xessayon D.G. “Vsyo o rozax” M.: “Kladez Buks”, 2002 S 89.
28. Xolyavko V.S., Globa-Mixaylenko D.A., Denrologiya i osnovy zelyonogo stroitelstvo” M.: 1980 S 96-98.
29. Xonazarov A.A. O’zbekistonda O’rmonzorlar barpo qilish asoslari. Toshkent 2002, 42 bet.
30. Xonazarov A.A., Kumzullayev G.K. Ixota daraxtzorlari va dexkonchilik. Toshkent 2002, 22-26 betlar.
31. Xonazarov A.A. O’rmonchilar uchun qo’llanma. T.1992, 37 bet.
32. Xonazarov A.A. va boshqalar. O’zbekiston xududini ko’kalamzorlashtirishda foydalaniladigan asosiy manzarali daraxtlar va butalar. T.: 2008, 124 bet.
33. Qayimov A.Q. //Denrologiya” T.:2006.
34. Qayimov A.Q. “Landshaft qurilishi” T.:2006.
35. Qalandarov B.I., Aripov J.U., Qalandarov M.M. “Ko’kalamzorlashtirishda butalarning manzarali xususiyatlari” RESPUBLIKANSKAYa NAUCHNO-RPOKTICHESKAYa KONFERENSIYa MOLODYIX UChYoNBIX «Soxraneniye i ustoychivoye ispolzovaniye bioraznoobraziya lesnyx i plodovyx porod» 21 maya 2010 goda, g. Tashkent, Uzbekistan TASHKENT - 2010.S 66
36. Yaskina L.V. Dendrologiya Tashkent O’kituvchi 1980 g S 128-130

Internet saytlari:

<http://www.altai.fio.ru>

<http://www.uniquegarden.ru>

<http://www.Ibmc.mck.ru>

<http://www.greeninfo.ru>

<http://www.franko.lviv.ua>

<http://www.paxer.ru>

<http://www.golkom.ru>

ILOVALAR